

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND

DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY - IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIIY ISH YO'NALISHI

IJTIMOIIY ISH KAFEDRASI

**MAMLAKATIMIZDA AYOLLARGA YO'NALTIRILGAN IJTIMOIIY
SIYOSATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

MALAKAVIIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Aralova M.

Ilmiy rahbar: ass.Tangirova M.

**Malakaviy bitiruv ishi Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2014 yil ____ ____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayyonnoma№ ____).**

Kafedra mudiri:

dots.Jo'rayev L.N.

**Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2014 yil __ ____dagi majlisida
himoya qilindi va __ foizga baholandi (bayyonnoma № ____).**

Samarqand – 2014.

MAVZU: MAMLAKATIMIZDA AYOLLARGA YO'NALTIRILGAN IJTIMOIY SIYOSATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

REJA:

Kirish

I-BOB. Mamlakatimizda ayollarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat va uning nazariy metodologik jihatlari

1.1. Ayollarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat – davlatimizning ustuvor yo'nalishi sifatida

1.2. Xotin-qizlarning jamiyat boshqaruv tizimida huquq va erkinliklarining tashkiliy asoslari

II-BOB. Mamlakatimizda xotin – qizlarning davlat boshqaruv tizimidagi faoliyati

2.1. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida xotin-qizlarning tutgan o'rni

2.2. Respublikamizda “Sog'lom ona – sog'lom bola” davlat dasturini hayotga tadbiq etishda ayollarning roli

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

MUNDARIJA:

Kirish.....

I-BOB. Mamlakatimizda ayollarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat va uning nazariy metodologik jihatlari.....

I.1. Ayollarga yo'naltirilgan ijtimoiy siyosat – davlatimizning ustuvor yo'nalishi sifatida.....

I.2. Xotin-qizlarning jamiyat boshqaruv tizimida huquq va erkinliklarining tashkiliy asoslari.....

II-BOB. Mamlakatimizda xotin – qizlarning davlat boshqaruv tizimidagi faoliyati.....

II.1. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida xotin-qizlarning tutgan o'rni.....

II.2. Respublikamizda “Sog'lom ona – sog'lom bola” davlat dasturini hayotga tadbiq etishda ayollarning roli.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Bugun jamiyatimizni biror bir sohasini xotin qizlarning faoliyati, ishtirokisiz tasavvur qilib bulmaydi. Oilada, maktabda, idora, ishlab chikarish korxonalarida, mehnat jamoalarida, o'quv yurtlarida mahallada ayollarimizning o'rni va roli benihoyat katta, tahsinga loyiq.

Ayniqsa o'zbek xalqida ayolga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat-ehtirom ifori o'zgacha. Yigitlarimiz ayollarni har qancha ulug'lab, ularga butun umrlarini baxsh etishsalar arziydi. Chunki, ayol-hayot, 7 iqlim, 7 falakda undan buyuk insonni topib bo'lmaydi. Shunday ekan, ayollarimiz bu nomga hech dog' tushirmasligi, erkaklar ayol degan nomning buyukligini teram anglomog'i, u zoti mukarramani ko'z qorachigidek asramog'ini ham qarz, ham farz deb hisoblaymiz.

Ayol bir qo'li bilan beshikni tebratsa, ikkinchi qo'li bilan esa dunyoni tebratadi. U borki, xonadonlarda tinchlik, osoyishtalik, saranjon - sarishtalik, ozodalik, go'zallik, yurtida fayzu baraka hukmron bo'lgay. Xonadon chirog'i, farzandlar tayanchi, shodligu quvonchimiz sohibi ham ayollardir.

Prezidentimiz tomonidan 1999 yilning "Ayollar yili" deb e'lon qilinishi ham ularga bo'lgan alohida hurmat va e'tibordan dalolat beradi. Prezidentimiz aytganlaridek, "Ayollar yili ma'naviyatimizga yangicha mazmun va tus beradi, ma'naviy hayotimizda yangi muhim bosqich bo'lib qoladi"¹.

Insoniyat jamiyati paydo bo'lgan qadimgi davrlardan boshlab jaxondagi eng go'zal va olijanob fazilatlar hammasi ayollar timsolida o'z ifodasini topgandir. Shark mamlakatlarida yaratilgan badiiy asarlarda nazar tashlasak, ijtimoy hayotga xos ku'rkamlik ham ayollar timsolida o'z ifodasini topgandir. Muqaddas "Avesto" kitobida ham ayol qalbining buyuk salohiyati ona zamin bilan tenglashtirilgan. Allomalarimiz, mutafakkiru musavvirlarimiz asarlarida ham ayollarga xos boqiy nazokat, ibo, iffat, sabru qanoat, sof sevgi va muhabbat bilan bir qatorda ularning

¹ Каримов И.А., Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 6 йиллигига бағишланган анжумандаги маърузаси. Халқ сўзи, 2013 йил, 7-декабр. 3-бет.

o'z farzandlari va oila oldidagi, shuningdek, umuman inson va olam oldidagi burch va ma'suliyatlari extiros va extirom bilan tarannum etilgan.

Ayollikning bosh belgisi onalikdir. Har bir ayol onalik mehri muhabbatini buyuk va muqaddas deb biladi. Onalik baxtiga yolg'iz farzand emas, balki shu farzandlar yashaydigan vatan, ular so'zlashadigan til ham bor. Shuning uchun onalar ayollarchalik urushni yomon ko'radigan haromlikdan nafratlanadigan, erkinlik va xurlikni qadrlaydigan va unga xomiylik qiladigan biror qudratli kuch yo'k dunyoda. Har bir tirik jonda o'zi yaratgan onaning bir bo'lagi, ona zamin xalqning xususiyati yashaydi. Shark ayollariga xos bo'lgan ana shunday boqiy sahovat, ulkan jasorat ona Vatan, ona zamin va ona xalqqa fidoiylik ayollarni shu muqaddas tuproqda ushlab turuvchi tomirlarimizdandir¹.

O'zbekiston ayollari nafaqat oila kamoli yo'lida, shuningdek mamlakat obodligi, yurt osoyishtaligi uchun ham kurashganlar.

Ayollar jamiyatning real ko'zgusiga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz ayollarining faoliyati faqat oila, farzand tarbiyasi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning qobilyat va iste'dodlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon qilishga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlovchi kurashda xotin-qizlarimiz jamiyatimizning faol kuchlari sifatida fidoiylik ko'rsatmoqdalar.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Bugungi o'zbek ayoli o'zining tarixiy ma'naviy ildizlari bo'lmish buyuk sharq ayollarining olamshumul ishlaridan doim ruxiy madad va quvvat oladi. Ular To'maris, Nodirabegim, Zebunniso, Uvaysiy, Dilshod Barno, Anbar otin singari oqila va fozila hukmdor va jasorat, xalqparvar va tadbirkor ayollarning an'alarini munosib ravishda davom ettiradi. Jamiyatda ayollarning tutgan o'rni, va roli ularning ijtimoiylashuv masalalari, ayniqsa ularning nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda batafsil o'rganilgan. Bu mavzuda chet ellik olimlar Brugner, Byuller, Vundt, Dyurkgeym, Kuli, Jeyms, Koll, Klapared, Kreyechmer, Mems, Mid, liyajiy Shtern va boshqalarning, Rossiyalik tadqiqotchilar Afanasev, Buyeva, Batunik, Voyekov, Konstantinov, Gryajev,

¹ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» T. «O'zbekiston» 1999 y. 18-bet.

Mitin, Konoyzerman, Smirnov, Toshenko, Frolov, Fedoseyev, Yadov, Yanovskiy va hokazolarning mamlakatimiz olimlari: M.M.Xayrullayev, I.Xudoyberdiyev, I.Ergashev, E.Yusupov, Ya.Yaxyoyeva¹larning ishlarini ko'rsatish mumkin.

Oilaning madaniyat ijtimoiy muommolari masalasida rus va sobiq ittifoq olimlari Alyoshina, Achilova, Beysinova, Boyko, Belkin, Gold, Kovalyov, Muxanov, Golvonova, Raximova, Chulponkulov va xakozalarning mamlakatimiz olimlari O.Buriyev, M. Vaxidov, A. Munnavarova, O. Musurmonova, M. Mamatov, K. Nasritdinov, M. Sangilov, U. Toshtemirov, I. Shoymardonov, M. Xolmatova, M. O'zbekov, G. Hamidovalarning ishlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy va siyosiy ahvoli masalalari R. Aminova, V. Karimova, 3. Muxtorova, F. Olimova, E. Usmonova, R. Ubaydullayeva², X. Shukurova, I. Gafforovalarning ishlarida atloflich ko'rib chiqilgan. Xotin-qizlar harakati tarixi masalalari olimalar D. Alimova, R. Aminova, S. Begmatova, G. Musina, K. Nishonboyeva, R. Rajapova va boshqa tarixchilarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadkikotlarning aksariyati mavkuraviy dogmalar hukumronligi davrida yozilgan bo'lib, ularda o'sha davrdagi komunistik mavkuraning kuchli ta'siri bilinib turadi. Lekin shunday bo'lsa-da ulardan xotin-qizlar ijtimoiylashuvini tadqiq qilishda, jamiyatdagi o'rni va rolini urganishda qimmatli manbalar sifatida foydalanish mumkin.

Jamiyatda ayollarning tutgan o'rni va roli ularning ijtimoiylashuv masalalari, ayniqsa ularning nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda batafsil o'rganilgan. Bu mavzuda chet ellik olimlar Brugner, Byuller, Vundt, Dyurkgeym, Kuli, Jeyms, Koll, Klapared, Krechmer, Mems, Mid, Liyajiy Shtern va boshqalarning, Rossiyalik tadqiqotchilar Afanas`ev, Bueva, Batunik, Voskov, Konstantinov, Gryajev, Mitin, Konoyzerman, Smirnov, Toshenko, Frolov, Fedoseev, Yadov, Yanovskiy va hokazolarning, mamlakatimiz olimlari: M.M.Xayrullaev,

¹ Yaxyoyeva L. «Ayollarning ijtimoiy - siyosiy faolligi». Toshkent. 1995-y.

² Ubaydullayeva R.A. Mustakil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006 - y.

I.Xudoyberdiev, I.Ergashev, E.Yusupov, Ya.Yaxyoevalarning ishlarini ko'rsatish mumkin¹.

O'zbekiston xotin-qizlarining ijtimoiy va siyosiy ahvoli masalalari R.Aminova, V.Karimova, Z.Muxtorova, F.Olimova, E.Usmonova, R.Ubaydullaeva, X.Shukurova, I.G'afforova M. Bo'rievlarning ishlarida atloflicha ko'rib chiqilgan².

Xotin-qizlar harakati tarixi masalalari olimalar D.Alimova, R.Aminova, S.Begmatova, G.Musinova, K.Nishonboeva, R.Rajabova va boshqa tarixchilarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi: Integratsiyalashuv jamiyatida ayollarga bo'lgan e'tibor, ularning jamiyatning barcha sohalarida ishtiroki muhim hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy –siyosiy va ma'naviy qiyofasi o'ziga xos tarzda shakllanib bormoqda. Malakaviy bitiruv ishining maqsadi, hozirgi kunda ayollarning jamiyatda va oilada tutgan o'rni va roli, yutuq va muammolari kabilarni yoritib berishdir.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari: Ayollar jamiyatning real kuzgusiga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz ayollarining faoliyati faqat oila, farzand tarbiyasi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning qobiliyat va iste'dodlarini ijtimoiy hayotning barcha sohalarida namoyon qilishga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahqamlovchi kurashda xotin-qizlarimiz jamiyatimizning faol kuchlari sifatida fidoiylik ko'rsatmoqdalar. Mana shunday fidoiy va oliyjanob insonlarni jamiyatdagi faollik darajalarini yanada oshirish malakaviy bitiruv ishining vazifalaridan biri hisoblanadi.

Malakaviy bitiruv ishining obyekti va predmeti: Malakaviy bitiruv ishining ob'ekti jamiyatimizda istiqomat qilayotgan jami aholining 50,5 fizini tashkil qiladigan ayollardir. Ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida faoliyat yuritayotgan, ish va oilani birdek olib borayotgan Respublikamizning

¹ Ubaydullayeva R.A. Mustakil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006 - y.

² Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.: «Universitet», 1997 - y.

xotin-qizlaridir. Ularning faoliyatlari, hatti-harakatlari, jamiyatdagi o'zni va roli malakaviy bitiruv ishining predmetini tashkil qiladi.

Malakaviy bitiruv ishining nazariy va metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mamlakatimizda qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar, qonunlar, kodekslar, Prezidentimiz farmonlari, asarlari hamda mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar olimlarining mavzuga oid adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlari ushbu mavzuni yoritishda nazariy va metodologik asos qilib olindi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi;

Malakaviy bitiruv ishimiz 2 bob 4 paragraf, kirish va xulosa qismidan iborat: Ushbu boblarda nazariy adabiyotlarga tayanib maqsad va vazifa sifatida belgilangan muammolar yoritildi. Yuqorida keltirilgan fikrlarning asosini mavzuda atroflicha to'xtalib, ochib berishga harakat qilaman.

**I BOB: MAMLAKATIMIZDA AYOLLARGA YO'NALTIRILGA
IJTIMOIY SIYOSAT VA UNING NAZARIY-METODOLOGIK
JIHATLARI**

**1-§ Xotin –qizlarning jamiyat boshqaruv tizimida hyquq va erkinliklarining
tashkiliy asoslari**

Davr ayolining qalbidagi yangilanishlar qay jihatlari bilan afzal? Uning voqelikka munosabati idrok va taxlil etishdagi nuqtai-nazarichi? Oilasi va jamiyat oldidagi mas'uliyat va burchlarini ayol qay darajada tushunib yetmoqda. Farzand tarbiyalayotgan ona ertaning talab-ehtiyojlarini anglay biladimi? Ijtimoiy fikrni o'rganish markazi sotsiologik tadqiqotlar jarayonida shunday savollarga ham javob izlaydi. Ushbu markaz direktori Ra'no Ubaydullayevaning aytishicha, respublikamizning barcha hududlarida 12 viloyat, 70 tuman, 180 qishloq, 395 mahalla, Toshkent shaxri va Qoraqalpog'iston respublikasi hududlarida maxsus sorovnomalar orqali jamoatchilik fikri o'rganildi va o'rganilmokda. «Jamiyat, oila, islom», «diniy tafakkur va aqidaparastlik», «oila va ma'naviyat», «ayolning tadbirkorligi, oila hamda jamiyatdagi o'rni», «Bola va huquq», «Yoshlarning ijtimoiy faolligiga» bag'ishlangan savol-javob natijalarining ko'rsatishicha, ayollarning asosiy qismi va uning azaliy fazilatlari, millatparvarligi, insonparvarligi, yurtparvarligi, tinchlik, ozodlik, tenglik ijtimoiy adolat kabi intilishlarni hamda shaxsning ma'naviy ruhiy xislatlarini, e'tiqod, imon, mexr, oqibat, insof, vijdon, millatga sadoqat, burch, mas'uliyat singari tamoillari mazmunini yaxshi anglaydilar. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra ayollarning 98 % iqtisodiy islohatlar va siyosatimiz yo'nalishlariga yuqori baho berishdi. «Kiyinchiliklar o'tkinchi, yurtda tinchlikning barqarorligi biz uchun ko'proq qadrlidir» deiishdi.

Ozod, yurtning istiqboli, onaning farzand tarbiyasidagi mas'ulyati, oilaviy burchlari, erga, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shniga munosabati haqidagi fikrlarda ayol ma'naviyatining bir bo'lagi, turli xil qirralari aks etadi. Ijtimoiy fikr markazi tomonidan «Tadbirkor ayol - 2009», «O'zbek ayolining ijtimoiy-axloqiy portreti»,

«Jamiyat, oila qadriyatlar, an'analar», «Yosh xotin - qizlarning ijtimoiy faoligini oshirishga» doir so'rovnomalar ishlab chiqildi va o'tkazildi.

Bugungi kunda ayol o'z-o'zi ga katta talab qo'yib yashashi kerak. Navoiy satrlarining mazmunini anglamagan, Yassaviy xikmatlaridan, «Kur'oni Karim oyatlaridan yod olmagan, jamiyatdagi o'zgarish va yangiliklardan bexabar ayol juda ko'p narsani bilmay, anglamay qolaveradi». Jamiyat to'xtovsiz rivojlanib borayotgan ekan, ayol hech qachon fikrlashdan to'xtamasligi kerak¹.

Hozirgi kunda jamiyat yuksalgan sari tariximizga milliy qadriyatlarimizga e'tibor juda kuchayib bormoqda. Mana shunday milliy qadriyatlarimizdan biri «Ayolga munosabat» masalasidir. Bu masala eng dolzarb masala bo'lib, jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Chunki oila ayol bilan farovon, tinch, mustahkamdir. Oila tinch bo'lsa, jamiyatimiz, butun davlatimiz, yurtimiz tinchdir. Oila bilan ayollarimiz erkaklarga nisbatan ko'prok bog'langandir. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, «Ayol avvalo har bir insonning beshigining tebratadigan, oq suti bilan uning yuragiga odamiylik fazilatlarini singdiradigan, uning hayot bo'ronlaridan asrab avaylaydigan fidoiy insondir»².

«Ayol farzand tarbiyachisi bo'lishi bilan birga mehribon rafiq hamdir. Jamiyatimizda esa olim, shoira, murabbiy, ijodkor, tadbirkor, moxir boshqaruvchi kabi mas'uliyatli o'rinlarni egallaganlar. Ayolga bo'lgan munosabatni birinchi o'ringa qo'yish, ya'ni ayolning hurmatini, izzatini joyiga qo'yish, uning mavqeini yanada yo'ksaklarga ko'tarish davr talabidir.

Tariximizga nazar solsak, qadimdan ota-bobolarimiz ham ayollarga munosabat masalasiga juda katta e'tibor berib, ularning hurmat-izzatlarini joyiga qo'yganlar. Masalan bundan 2 ming yil oldin yashagan bobomiz Alp Er Tunga davrida ayollar shunday katta hurmatga ega bo'lganlarki, agar uy to'rida ota-ona yonma-yon o'tirgan bo'lsa, bolalari eshikdan kirganda avval onasiga, so'ngra otasiga ta'zim bajo keltirgan ekanlar. Bu odat o'sha davrning eng oliy oilaviy an'anasi bo'lgan ekan.

¹ Ахмад Яссавий хикматлар. Тошкент 2001-й. 150-бет.

² Каримов И.А. Юксак – маънавият енгилмас куч. Т. 2008 й. 18-бет.

Buyuk bobokalonlarimiz sohibqiron Amir Temur ham Saroymulxonimday oqila, farosatli ayol qoshida bosh eggan. Eng qiyin damlarda Saroymulxonimning maslahatlariga amal qilgan. Farzandlari, ayniqsa taxt vorislarining tarbiyasini unga ishongan.

Eng avvalo ayol har bir oila ko'rki hisoblanadi. Oilada farzand tarbiyasi, farzandning kim bo'lib yetishishiga bevosita ayol sababchi. Bu esa bevosita jamiyat bilan bog'liq hodisadir. Ayolning oilada farzandga bergan tarbiyasi bilan jamiyatga foyda keltirish mumkin.

Xalqimizda ayolning shirin suxanligi, odobiga qarab mehmon keladi, degan gap bor. Asosan ayol oilaning ko'rki, oilaning sham chirog'i hisoblanadi. Bola hayotga muhabbat muomilali, madaniyatli, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lishni o'rganish, ko'chada, uyda o'zini tutishni onaga taxlit qiladi. Onaning xati harakati, odobi bolada aks etadi. Bola tarbiyasida onaning roli alohida ekanligini takidlagan holda buyuklar ham shunday degan: «Kimki ayol huquqini ximoya qilsa, bola huquqini ham ximoya qilgan bo'ladi, boshqacharoq aytganda u kelajakni ximoya qiladi».

Alohida bir shaxs uchun bo'lganidek, umuman inson uchun oila davlatdan ko'ra muhimroqdir. Insoniyat shaxs tushunchasi, shaxs (inson) oila tushunchasi bilan bog'liq. Oila-inson beshigi, uning ota uyi, uning ijtimoiy boshpanasidir. Azal-azaldan insoniyat davlatdan emas-shaxs va oiladan tashkil topgandir. Insoniyatga davlat tushunchasi begona. Davlat-bu, sun'iy siyosiy, iqtisodiy, ba'zan harbiy ko'rilmadir, bularning insoniyat tushunchasi bilan bogliqliq joyi yo'k, unga qech qanday aloqasi ham yo'q.

Qandaydir oilaning birligiga putur yetkazadigan va uning yashnashiga xavf soladigan jamiyat o'simlik ildizidan sug'urib olinadigan namlik yetishmay, o't tushib yoki shunchaki qarovsizlikdan qurib ado bo'ladigan o'simlik tajribaxonasiga o'xshaydi.

Insonning oila sharoitida tabiiy ravishda shakllanishi yo'lga qo'yilgan, odam o'zi bilmas rishtalar bilan bog'langan oila chinakam gullayotgan oiladir. Bunday jamiyat o'zi ko'kargan navdasida o'sib unayotgan yaproqqa o'xshaydi. Xuddi shu

sababdan ham odamni oiladan tashqari tasavvur qilish samarasiz va ijtimoiy mazmundan begonadir. Bordi-yu insoniyat jamiyati qandaydir zamonlar kelib oilasiz jamiyat bo'lar ekan, bunday jamiyat-sun'iy o'simlikka o'xshash beboshlar jamiyatiga aylanadi.

Ayol-odam. Erkak - u ham odam. Bu mutloq shak-shubxasiz xaqiqat. Ayol va erkak birdek insonlarki, ular orasidan inson sifatida qandaydir tafovutlar topish oshkora va hech qanday asosga ega bo'lmagan adolatsizlikdir.

Shularga qaramay, erkak-erkak, ayol-ayoldir. Nega shunday? Nega insoniyat jamiyati fakat erkaklardan yoki bo'lmasa, nuqul ayollardan iborat emas. Negaki, erkak va ayol tabiat tomonidan yaratilgandir.

Erkak va ayolning bir vaqtda mavjudligi tabiiy zaruratdir. Shundan ham bilish mumkinki, ularning har biriga o'ziga yarasha vazifa belgilangan. Ayni shuning uchun ham ularning har biri tabiat tomonidan o'z zimmasiga belgilangan vazifani bajarish uchun shart-sharoitga ega bo'lishi kerak. Har ikki tomonning burchi, vazifasini tushinmoq uchun erkak va ayol tanasiga tabiat tomonidan ato etilgan organizimni farqlay bilish kerak. Ularning har ikkisinining o'ziga yarasha vazifalari borki, biri ikkinchisining yoki ikkinchisi birinchisining zimmasidagi vazifani o'z zimmasiga ololmaydi. Ayol zimmasidagi biologik vazifaning naqadar mashaqqatli ekanligini, ular juda katta kuch-quvvat sarflashlar evaziga bo'lishini nazardan qochirmaslik kerak. Ayolning bu vazifasidan voz kechish bilan insoniyat hayotini tasavvur qilish mumkin emas. Bu vazifa ayol tomonidan qungilli ravishda tanlab olingan emas, balki u tabiat tomonidan belgilangandir¹.

Ayolni onalik burchidan mahrum qilishga moyillik va ona vazifasini yasli (bog'cha) zimmasiga yo'klash insonparvarlikdan cheklanishning boshlanishidir, insoniy jamiyatdan cheklanish va uni sun'iyilashtirishdir. Bolalarni onalardan ajratish va yaslilarda boqishga o'tish bolalarni jo'jaga o'xshatib qo'yadi, zotan yaslini, inkubatorida ochilgan jujalar boqiladigan tovuq fermalariga qiyoslash mumkin. Tabiiy onalik saklansagina, bolaning o'zi tuqqan onasi bag'rida o'nib-o'sishiga insoniy jamiyatga xosdir. Bolani onasidan judo etish va yasluga jo'natish

¹ И.А.Каримов. Оила фаровонлиги - миллат фаровонлиги."Ўзбекистон". Т.6. 1998, 239-бет.

unga nisbatan qilingan zo'ravonlikdir, uning tabiiy maromda rivojlanishi uchun tuskinlikdir. Ona va bolani bir biridan ajratishga olib keladigan har qanday urinish zurovonlik va o'zboshimchalikdir. Ona o'z tabiiy burchini ado etishi uchun barcha huquq va yetarli shart-sharoit yaratishimiz shart. Ayol qandaydir sabablarga ko'ra bola ko'rish va uni tarbiyalashdek tabiiy burchni bajarishdan bosh tortishga majbur bolar ekan, bu ayol zo'ravonlik va o'zboshimchalik qurboni deb qaraladi. O'zining ayollik burchiga zid vazifalarni bajarishga majbur etilgan ayol ozod emasdir. Xomiladorlik chog'ida ogir jismoniy mehnat bilan band etish g'ayri insoniylikdir¹.

Ayolning jismoniy mehnat bilan o'z ixtiyoriga ko'ra shug'ullanayapman deb tan olish xaqiqatga to'g'ri kelmaydi. Aslida moddiy qiyinchilik tug'dirgan jamiyatdagina u o'zi anglamagan holda shunday sharoitga bo'ysunishi mumkin. Biroq hozirgi erkak va ayol o'rtasidagi teng huquqlilik sharoitida aksariyat hollarda ayol o'zi tanlash huquqidan mahrumdir.

«Har sohada teng» degan iboraning o'zida ayolga nisbatan katta yolg'on yotibdi, negaki bu ibora ayolni erkakdan farqlab turgan va hayotdagi o'rnini belgilaydigan bosh tabiiy xususiyatlarni yo'kka chiqaradi.

Homilador holatdagi ayol bilan erkak kishini og'ir yuk tashishda teng huquqli deydigan bo'lsak, shuning o'zi shafkatsizlikdir. Bolasini emizish chog'idagi ayol bilan erkak kishining ro'za kunlaridagi ahvoli teng huquqli deydigan bo'lsak, bu-kaltabinlikdir. Og'ir mehnat turlariga mahkum ayol bilan erkak orasiga tenglik alomatini qo'yar ekanmiz - bu, johillikdir. Ayollarni ayollik tabiatiga zid keladigan kasb-kori o'rgatishning o'zi vaxshiylikdir.

Ayol-ayol zotidan bo'lganligi uchun uning biologik tabiati erkak tabiatidan farqli. Shuning uchun ham ayol ham mohiyatan, ham zoxiran erkakdan tubdan farq kiladi².

Bu tabiatning mislsiz va o'zgarmas qonunidir. Nabotot va xayvonot dunyosida ham erkak tabiatan o'zining kuchi va qo'poligi bilan, ayol esa go'zalligi va nozikligi bilan ajralib turadi. Qo'pol kuch sohibi bo'lish erkakka, go'zallik va

¹ И.А.Каримов. Миллий истиклол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишонч. - Т.: "Ўзбекистон". Т.8. 2000 й. 502-бет.

nafosat sohibasi bo'lish ayolga taqsimlangani shuning uchun ham adolatdiki, bir jihatdan bu nihoyatda tabiiy bo'lsa, ikkinchi jihatdan bu hurlikning bosh qonunidir, zero, har qanday maxluq avvalo hur yaratgandir. Bu hurlikka putur yetkazadigan har qanday tashki aralashuv esa ozodlikka ziddir, mantiqsizdir. Tabiiy o'ziga xoslikka e'tiborsizlik, uning sarhadlaridan ko'ngilli ravishda chiqib ketish hayot qadriyatlarini oyoqosti qilish va uni yo'k etishga tengdir.

Tug'ilgandan to umrning so'nggi daqiqalargacha barcha narsa tabiatning o'z qonunlari asosida majburlanmay, chetga og'ishmay yashashga moslashtirilgan. Bu tabiiydir, buning zahirida tabiiy xurlik boqiydir. Qayerdiki, ayol va erkak tabiat tomonidan ato etilgan vazifa - burchlarni bajarishdan bosh tortsa, o'sha yerda hayotning tabiiy oqimi buzilgan hisoblanadi. Shunga qaramay, qariyb, butun dunyoda ayolni erkakka aylantirishga urinish kuzatiladi. Bu tabiat ustidan zo'ravonlikdir. Bu hurlik qonuniga ziddir, hayotga qarshilikdir va mavjudlik qonunlariga xilofdir. Xizmat burchi taqqozasi bilan oila qurishdan, homilador bo'lishdan saklanadigan ayol sharoit majburiyati ostida o'z tabiiy vazifasidan voz kechgan hisoblanadi.

Shunday qilib, hurlik cheklangan yashash xavf ostida qolgan g'ayriinsoniy sharoitlardagina ayol yoki erkak tabiat o'zlariga yo'qlangan burch va vazifalaridan bosh tortishi mumkin. Shu bois ayol o'zining tabiiy vazifasini ado etish imkon beradigan moddiy sharoitlarni yaxshilash uchun va ayolni erkak bilan teng huquqli degan da'voda erkaklar mehnatidan ozod etmoqlik uchun dunyo miqyosida qayta qurish qilmok kerak.

Ayol bilan erkakning tabiiy tafovutlarini aralashtirib yuborish madaniyatli inson kadriyatlariga va tabiatning mangu qonunlariga tomomila zid urinishdir. Bu inson hayoti hayotlarini izdan chiqaradi va uning ijtimoiy turmushidagi barcha falokatlarning asl manbai bo'lib qoladi.

Ayolni og'ir mehnatlarga muhtalo etgan taraqqiylashgan mamlakatlar madaniylashgan emas, balki moddiylashgan jamiyatdir.

Gap ayol ishlashi kerakmi yoki kerak emasmi degan masalada emas, masalani bunday ko'ndalang qo'yish bema'niylikdir, negaki jamiyat erkakdir-

ayoldir mehnatga yaroqli barcha a'zolarni ish bilan ta'minlashga majburdir, gap har kim o'ziga yarasha mehnat bilan ta'minlanishi haqida, hech kim tabiatdan o'ziga begona mehnatga majburlanmasligi xususida borayapti.

Bolalarni kattalar mehnatiga majburlash yaramaslik va zo'rovonlik bo'lganidek, ayolni erkaklar mehnatiga solish ham g'ayriinsoniylik va zo'ravonlikdir.

Ruhiy-ma'naviy munosabatlar tizimida ayol alohida o'rinni egallaydi. U qator ijtimoiy shaxsiy va oilaviy salohiyatini o'ziga mujassam etadi. Oiladagi munosabatlarni va ruhiy ma'naviy iqlimni vujudga keltirishda o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayolning oilada asosiy o'rmini egallashi uning zimmasida vazifalar ko'pligidan kelib chiqadi. Doimiy yuk esa uning jismoniy va ayniqsa ruxiy salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Oilada go'zal va osoyishta ruxiy ma'naviy iqlim vujudga keltirishda munosabatlarning psixologiyasini yo'ksaltirishga intilish kerak. Bundan maqsad ayollarni ruxiy salomatligini saqlash va turli nevrozlarni (asab sistemasi faoliyatining vaqtinchalik bo'zi lishi) kelib chiqishining oldini olishdir¹.

Ayol ruxiy salomatligining muvozanatdan chiqishi hali kam o'rganilgan uning sabablari ko'p albatta:

- Mojaroviy vaziyatni keltirishi mumkin bo'lgan ba'zi oila a'zolarining xususiyatidagi ta'javuzkorligi.

- Turli xil vaziyatlarda qo'rquv, bezovtalik.

- Oiladagi tarbiyalovchi shaxslardan birining faqat mening aytganim - aytgan, deganim-degan, kayfiyatida ish ko'rishi.

- Oilada o'zaro tafakkuriy munosabatlar, ya'ni oila a'zolari o'rtasida muloqotning yetishmasligi.

- Zarali odatlar mavjudligi, ya'ni taksakamaniya, narkamaniya, chekish, alkagol istemol qilish.

- Bir-birining yoshi, jinsiy individual fiziologik va psixologik xususiyatlarini baholay olmaslik.

¹ Тўраева О. «Оилавий ҳаёт этикаси ва психологияси». Т., «Ўқитувчи», 1998-й. 122-бет.

- Yashash joylardagi ijobiy mikro iqlim sharoitlarini yaratishga yetarli e'tibor bermaslik.

- Kundalik tartibga loqayd munosabatda bo'lish.

- Ota-ona va boshqa oila a'zolarida pedagogik madaniyatining yetishmasligi tarbiyalovchi kuchlarning bir yoqadan bosh chiqarmasligi bu esa o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash masalasida kelishmovchilikka olib keladi va x.k.

Yuqoridagi muammolarni hal etish sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi. Ayolga nisbatan odil, hurmatli munosabat shakllantirishni ta'minlaydi, bu esa uning ruxiy salomatligi garovidir.

Bolalarni kattalar mehnatiga majburlash yaramaslik va zo'rovonlik bo'lganidek, ayolni erkaklar mehnatiga solish ham g'ayriinsoniylik va zo'ravonlikdir.

Ruxiy-ma'naviy munosabatlar tizimida ayol alohida o'rinni egallaydi. U qator ijtimoiy shaxsiy va oilaviy salohiyatini o'ziga mujassam etadi. Oiladagi munosabatlarni va ruxiy ma'naviy iqlimni vujudga keltirishda o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ayolning oilada asosiy o'rmini egallashi uning zimmasida vazifalar ko'pligidan kelib chiqadi. Doimiy yuk esa uning jismoniy va ayniqsa ruxiy salomatligiga salbiy ta'sir etadi. Oilada go'zal va osoyishta ruxiy ma'naviy iqlim vujudga keltirishda munosabatlarning psixologiyasini yuksaltirishga intilish kerak. Bundan maqsad ayollarni ruxiy salomatligini saqlash va turli nevrozlarni (asab sistemasi faoliyatining vaktinchalik buzilishi) kelib chiqishining oldini olishdir¹.

Yuqoridagi muammolarni hal etish sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi. Ayolga nisbatan odil, hurmatli munosabat shakllantirishni ta'minlaydi, bu esa uning ruxiy salomatligi garovidir.

Psixologlarning fikricha ayolning jismoniy va ruxiy salomatligini asrashda er-xotinning bir-biriga mehribon bo'lsa, oilada boshqa munosabatlarni sozlash mumkin. Ularning ahl yashash sirlari quyidagicha:

¹ . И.А.Каримов. Оила фаровонлиги - миллат фаровонлиги. "Ўзбекистон". Т.6. 1998, 240-бет.

- Bir-biri xaqidagi axboratlarga ega bo'lish kerak: qiziqishi, intilishlarini ruxiy dunyosini tushinishi. Bu o'z navbatida ayolga xaqiqiy insoniy ishonchli munosabatni shakllantirisha yordam beradi.

- Muloqot qilish, shodlik va qayg'usini bo'lishish, bir-birining ishi bilan qiziqish, faqatgina tor uy muammolari bilan cheklanib qolmaslik kerak.

-Sharqona lutf hurmat, e'zoz, sabr toqat, g'azab kelganda o'zini qo'lga olish munosabatlarning asosi bo'ladi.

Bular barchasi har bir oila a'zolarining ham jismoniy ham ruxiy salomatligi saqlashga yordam beradi, ayniqsa ayolning - oila posboning salomatligiga ijobiy ta'sir etadi.

Sog'lom ayol, ona – sog'lom farzand demakdir. Sog'lom muhit sog'lom oila - jamiyat poydevoridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning turli yangicha shakllarda xotin-qizlarning faol ishtirok qilishlariga imkon yaratib berish ham muhim ahamiyatga egadir. Tadbirkor ishbilarmon ayollarning ko'payishi zarur sharoit yaratib berish kerak. Albatta buning uchun ayollarimizning iqtisodiy va huquqiy bilim darajasini oshirishimiz talab etadi. Ish bilan band aholi orasida malakali xotin-qizlar darajasini oshishi onalar faravonligiga, jamiyat barqarorligiga olib keladi. Xotin-qizlar mehnatini rag'batlantirish choralari belgilash, ishchi va mutaxassis xodimlar tayyorlash ularni kayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirish kerak.

Bizning xalqimiz azal-azaldan ayollarning ma'rifatli, madaniyatli bo'lishiga alohida e'tibor berib kelgan. Butun dunyoga mashxur bo'lgan madaniy ma'rifiy ananalarimizning qonuniy vorislari bo'lishi zamondosh xotin-qizlar ham bugunning talablari darajasida, madaniyatli bo'lishlari ilmu fan sirlarini egallashlari zarurdir.

Har bir ayolning eng muhim vazifasi tarbiyachi bo'lishdir. Tarbiyachi esa yetarli darajada madaniy - ma'rifiy saviyaga ega bo'lmay turib millat kelajagi bo'lmish bolalarga yaxshi tarbiya bera olmaydi.

Xotin-qizlarni ma'rifatli qilishda ularni ilmu fanga jalb etishda, madaniy saviyalarini ko'tarishda milliy qadriyatlarga tayanib ish olib borish dorkor. Shirin so'z, bag'ri keng kechirimli kamtar, hayoli, bokira va oqila singari sifatlarga ega bo'lgan xotin-qizlarni kamolga yetkazish lozim. O'zbek xotin-qizlariga xos shu xildagi ajoyib fazilatlarni shakillantirish eng dolzarb yumishlardan hisoblanadi.

Xotin-qizlarning ilm fandagi, ta'lim va tarbiyadagi faolligini namoyon qilishlariga ko'maklashish, ularning ijodiy izlanishlari uchun moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratib berish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirib olishga davat etish zarurdir.

Har qanday oilaning chirog'i ayoldir. Xonadonning serfayzligi, oila a'zolarining muvaffaqiyatlari, ular ma'naviyatini darajasi turmushini faravonligi, asosan xotin-qizlarga bog'liqdir. Shuning uchun ham ayollarning oiladagi mavqeiga alohida e'tibor berish kerak. Oilada ayolning onaning bosh tarbiyachi ekanligini tan olgan holda, bolalar tarbiyasi bilan shugullanish nafaqat oilaning ishi balki barcha mahalla faollarining ham birinchi darajali ishi ekanligini guvohi bo'lib turibmiz.

Xalqimizning ruhiyatiga, turmush tarziga yot bo'lgan ba'zi illatlarga qarshi kurashishda xotin qizlar, mahalla faollari eng ta'sirchan kuch bo'lishlari tabiiydir.

O'quv yurtlarda bolalarning ongini oshirishimiz, ularning bo'sh vaqtlarini turli yunalishlardagi ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan to'ldirishimiz kerak. Bugungi yoshlarimiz tafakkurida uchrab turadigan bo'shliqni vujudga keltirmasligimiz ularni ongli farqlashga o'rgatishimiz lozim.

Mahalla axli o'rtasida alohida hurmatga sazavor bo'lgan xotin-qizlar oila quradigan yoshdagi yigit qizlarni turmushga tayyorlashdek jiddiy yumishga safarbar etilishi kerak. Ayolning eng avvalo oilada egallagan o'rni, bajaradigan vazifalari barcha davrimiz zamonlarda mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Bejiz «yer yuzida bittagina ayol mavjud ekan, ular xaqida hamisha nimadir yangi gap aytish mumkin» deb mutafakkirlarimiz ta'kidlamaganlar. Etipsixologik xususiyatlarni o'z ichiga olgan Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asarida ham ayol va oila masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. «Agar xotin olmoqni

istasang, xotinni sarosim ista, ko'zingni juda o'tkir qil»¹-deb bejiz ta'kidlamagan. Bunga sabab, bizning fikrimizcha o'sha davrda ayollarga bo'lgan munosabat past bo'lib, ayollarning roziligi, bo'lajak turmish o'rtogiga bo'lgan fikrini inobatga olinmaganligidandir, shu bilan birga «ayolning makr-xiylassi» tushinchasiga ko'prok e'tibor qaratilgan bo'lsa ham kerak. Mutafakkir Yusuf Xos Xojib: «Sen xotin olsang, o'zingdan quyisini olgin, zoti oliysiga boqma, qul bo'lib qolasan»² deb yozganda etnopsixologik xususiyatlarini ko'rsatib o'tgan. Birinchidan, «maqsadli oila qurish» mustahkam bo'lmasligini - ta'kidlab, ya'ni «qiz olsang o'zingdan quyidan ol, qiz bersang o'zingdan yo'qoriga ber» an'ana tarafdoridir. Ikkinchidan o'sha davrda mavjud va bugungi kunda ham ayrim davralarda mavjud bo'lgan «xotin quli» ya'ni xotiniga buysunadigan bo'lish xavfini ko'rsatgan. Agarda biz Yusuf Xos Xojibning bu g'oyalarining tarbiyaviy talqiniga ko'proq e'tibor qaratsak, unda psixologik-pedagogik mazmun bevosita ko'zga tashlanadi. «O'zingdan quyi tushinchasini mazmunining o'zida bir jahon falsafa bor». Bunda asosiy masalalardan biri iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi. Hissiy yaqinlik, hurmat darajasi, ijtimoiy statusi kabi xususiyatlar mavjud. Agarda ayolning iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi- erkaklarnikidan yuqori bo'lsa, uni ijtimoiy statusi (ayol tarbiya topgan oilani ham) yuqori bo'lsa mutafakkirning fikricha, ayolning hurmat darajasi erkakka, uning ota-onasiga, yaqin qarindoshlariga nisbatan past bo'ladi. Bu oilaviy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu g'oyani Axmad Donish o'zining «Navodur ul – vakoye» asarida ko'rsatib o'tgan. Kuzatuvlarimizning natijalariga ko'ra bugungi yoshlarimizni ayrimlari yuqoridagi sabablarga asoslangan holda qalbaki oila qurmoqdalar. Bu oilalarning taqdiri ularning o'zlarini ham ota-onalarini ham qiziqitirmaydi natijada o'z joniga qasd qilishi uydan bosh olib ketish salbiy voqealar kuzatilmoqda. Avvallari erkakga nafaqat oila yetakchisi balki, eng avvalo oila boquvchisi sifatida qarardilar, ayni paytda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ba'zi bir korxonalarining davlat monopoliyasidan chiqarilishi tufayli ayrim ayollarning maoshlari erlarinikidan ham

¹ Юсуф Хос Хожиб. Қутадғу билиг. Т., 1972. 501-бет.

² Ўша жойда. 502-бет.

ko'p ekanligi ma'lum. Shunga qaramasdan ham, ular turmush o'rtoqlariga nisbatan hurmat darajasini tug'ri saqlab kelmoqdalar, bu ayollar nafaqat o'zlarini hayotlarini, balki farzandlarini hayotlarini o'ylagan holda ish tutadilar. Lekin ayrim oilalarda iqtisodiy ta'minlanish ayollarda bo'lgani sababli erkak obro'siga putur yetkazayaptilar. Bu oilalarda tarbiya topayotgan o'g'il-qizlar erta indin qanday hayot kechiradi degan savolga bu ayollarimiz to'g'ri javob bera olmaydilar. Bu masala bugungi kunda psixologlar pedogoglar diqqat markazida turibdi.

Markaziy Osiyo yerlarining serunimligi, tabiatning qulayligi va boyligi, shuning uning geografik o'rni, mo'l-ko'l resurslari doimo bosqinchilar tomonidan zabt etish uchun talashishlar, urishishlar kabi tajovo'zkor harakatlarga sabab bo'lgan. Bu esa maxaliy aholida o'z yerini dushmanlardan himoya qilish ko'nikmasini shakillantirgan va xotin-qizlarda ham vatanparvarlik, erksevarlik, dushmanlarga qarshi murosasizlik tuyg'ularini rivojlantirgan.

Shunday qilib, jamiyat hayotining ilk davrida xotin-qizlar ijtimoiy munosabatlarning tamal toshini qo'ygan. Bu davrda ularning ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatning ham moddiy, ham ma'naviy ravnakini ta'minlagan. Markaziy Osiyo mintakasida ayollar ham ona, ham tarbiyachi, ham ishchi, ham boshqaruvchi, ham tadbirkor, ham mexir-muxabbat, saxovat ulashuvchi ulug' zot sifatida obro' va e'tibor topganlar¹.

Islom dini xukumronligi davrida mintaqamiz xotin-qizlari o'ziga xos ijtimoiylashuv jarayonini boshidan kechirgan. Bular quyidagilardan iborat: - Islom dinining mazmun-moxiyati, aqidalari mintaqamiz xalqlarining turmish tarzi, dunyoqarashi va ruxiyatiga mos kelganligi tufayli saqlanib qoldi va takomillashtirildi. Mintaqada xotin-qizlarga bo'lgan hurmat, ularning ijtimoiy hayotdagi mavqelarini balandligi islom dinining ayolga bergan huquqlari darajasiga mos ekanligi ham bu mavkuraning o'rnashib qolishiga sabab bo'ldi. Islom ta'limoti xukumron mafkura darajasida bo'lsa-da, yerlik aholi orasida uzok vaqt davomida ayollarning ijtimoiy hayotdagi erkinligi, ularning erkaklar bilan

¹ И.А.Каримов. Оила фаровонлиги - миллат фаровонлиги."Ўзбекистон". Т.6. 1998, 325-бет.

tengligi saqlangan. Shu davr mobaynida mintaqada ilm-ma'rifat va madaniyat yuksak darajada rivojlandiki, unga ayollar ham o'ziga xos ulush qushdilar.

XVI asrdan boshlab Islom dini niqobi ostida aqidaparastlik va mutoassiblik rivojlanib, jamiyatda ilm ahllari bilan bir qatorda xotin-qizlarga ham tazyiq o'tkazila boshladi. Ayollarning ijtimoiy hayotdagi erkinliklariga barham berildi, Ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ta'qiqlandi. Ayollarning paranjiga kiritish, ularni barcha ijtimoiy-siyosiy huquqlardan maxrum etish jarayoni kuchaydi. Jamiyatda ilm-ma'rifat so'nib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tushkinlik hukm surgan bir davrda ayollarning sadoqati va fidokorligi tufayli oiladagi sog'lom ma'naviy muhit bir qadar saqlanib qolishdi va jamiyat uzul-kesil ma'naviy ruxiy tanazzulni boshdan kechirmadi.

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab ijtimoiy siyosiy beqarorlik, jamiyatda ayollarning erksizligi siyosiy tanglik xotin-qizlarning ma'naviy ruxiy uyg'onishiga turtki bo'ldi. Ayollar orasida ma'rifatga intilgan Nodira, Uvaysiy, Dilshod, Barno, Anvar otin kabi bir guruh ma'rifatparvarlar yetishib chiqdi. Rossiya istilosi davrida o'zbek xotin-qizlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan siyosiy yo'nalish vujudga keldi. Mustamlakachilikning O'rta Osiyo xotin - qizlariga nisbatan yurgizgan siyosati ikki tomonlama harakterga ega edi. Bir tomondan bu mintakadagi xalqlarni butunlay qaram qilib olish maqsadida ularning an'alariga, milliy, diniy, tarixiy va madaniy qadriyatlariga qarshi kurashish uchun ayollarni «tutqundan ozod qilish», «yevropalashtirish» shiori ostida diniy va milliy e'tiqodlardan ajratish, til va tarixidan judo qilish, milliy va ma'naviy qadriyatlarini kamsitish va hokazolardan iborat edi. Ikkinchi tomondan mintaqada ishchi yetishmasligi tufayli xotin-qizlar mehnatidan ishchi kuchi sifatida foydalanish va shu orqali O'zbekistonning tabiiy boyliklaridan unumli foydalanishga erishish edi. Ayniqsa «Xujum» davri mintaqamizda xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayoniga kuchli ta'sir qildi. Bu harakat tom ma'noda faqat xotin-qizlar taqdiriga emas balki o'zbek xalqining an'alariga, udumlariga, ta'rixiga, diniga, tiliga, madaniyatiga va ma'naviy qadriyatlariga qilingan edi. Tadqiqotchilarimiz uzok vaqt «Xujum» xaqida faqat ijobiy fikr bildirib keldilar.

Bugun ijtimoiy xayotimizdagi ma'naviy va ruxiy inkirozni moxiyatini chukurok urganishga kirishganimiz sayin mustamlakachilik siyosatining barcha kirdi-korlari fosh bo'lib boradi.

Istilochilik davrining mintaqamiz xotin-qizlarining ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri va unda yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar quyidagicha baxolangan:

Rossiya mustamlakachilik siyosati o'zbek ayollarining o'ziga xosligini ularning milliy va diniy an'analarini, ma'naviy qadriyatlarini e'tiborga olmadi:

Shuro davri ayollarining biofiziologik xususiyatlarini, ularning tug'ma tabiiy funksiyalarini va jamiyat uchun yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi rollarini nazar-pisand qilmadi:

Ayollarni moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish ijtimoiylashuvning yakka-yagona yo'li deb e'tirof etildi va o'z-o'zini qayta ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan faoliyat kamsitildi:

-Ayollarning oila doirasidagi faoliyati qoralanib, u ijtimoiy foydali mehnat turi sifatida qoralanmaganligi oqibatida oila o'zining ijtimoiy mavqeidan ajralib, maishiy ishga aylandi:

-O'zbek ayollarining tabiatida mavjud bo'lgan vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini sun'iy ravishda ittifok deb atalmish hududga yoyishga harakat qilindi:

-Ayollar ruxiyatidagi isyonkor jangovorlik tuyg'ulari esa moddiy ne'matlar ishlab chikarish doirasiga yunaltirildi, qoralab ko'rsatilgan o'z milliy, diniy an'analari va urf-odatlariga qarishi kurashga safarbar etildi.

Ajdodlarimiz juda qadim zamonlardanoq farzand tarbiyasiga katta e'tibor berganlar. Yashash tarzi, iqtisodi, qurish-qurilish, uzoq yaqin qo'shnilar bilan muomila, munosabatlariga qancha diqqat qilsalar, farzanlarining jismoniy, ruxiy salomatligiga ham shu qadar mas'uliyat bilan qaraganlar. Ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni, erkaklar bilan munosabat mezonlari - bari-bari eng qadim davrlardan aniq qonun-qoidalar bilan belgilangan. Va bu qonun- qoidalar teran mushohada va adolatga tayanganligi sezilib turadi¹.

¹ Yaxyoyeva L. «Ayollarning ijtimoiy - siyosiy faolligi». T. 1995. 18-bet.

Qadim zardushtiyalar kitobi «Avesto»da ham oila erki, xotin-qizlarning jamiyatda tutgan o'rnini, onaning xonadondagi mavqei masalalari turli o'rinlarda, har xil munosabatlar bilan maxsus qayd etilgan, izohlangan. Zardushtiylikda qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Zardusht ta'limoticha, har bir ota-ona o'z qiziga balog'at yoshiga (15 yoshga) yetguncha zamonasining barcha hunarlarini, mol boqishidan tortib ro'zgor to'tishgacha mukammal o'rgatishi, e'tiqodli, pokiza, axloqli qilib tarbiyalashi zarur. Bunday tarbiya ota-ona ishini ham yengillashtiradi. Xonadonning hamisha saranjom bo'lishini ta'minlaydi. Boz ustiga qiz tushgan xonadonida ham qaynota, qaynona, kuyov hurmatini qozonadi.

Zardusht «ayol huquqini taxqiq etmoq yomon amaldir, u nodonlik belgisidir», deydi.

Yashtlarda o'qiyimiz: «Ug'il bolalarga nisbatan ham qiz bolalar ilmu donish o'rganishga kirishsinlar. Zeroki, ular ota-ona manzilida bo'lgan vaqtlarida ota xonadonini tarbiyaga solib, ziynat berib yursalar, jufti xaloli manziliga borgach, bolalar tarbiyasi bilan, kelajak nasl ta'limi bilan mashg'ul bo'lmoqlari lozim bo'ladi». Zardusht qizini turmushga berish oldida quyidagicha nasihat qiladi: «Ey, Pruchisto, ey kenja qizim, men sening otang ekanman, mazdoparastlik dinining targ'ibotchisi Jomaspni senga jufti halollikka intixob etdim. Endi sen o'zing bilan aqlu farosat ila maslahat qil, bu maslahatni qabul etsang, poklik rasmi bilan aqdi nikoh bog'laymiz».

Zardusht yana bulg'usi kelin-kuyovlarga murojaat qiladi: «Pandimga quloq soling va aytganlarimni xotirangizga muhrlab oling. Xalollik bilan kun kechirish yulida g'ayrat va shijoatli buling. Har biringiz yaxshi xulqingiz bilan bir-biringizga mehr qo'ying, tokim muqaddas er-xotinlikni xursandlik va xushbaxtlik bilan o'tkazing».

Zardushtiyalarda nikoh bir umrga muhrlangan, bir erkakka ikki nikoh yoki vaqtincha nikoh ravo bo'lgan emas. Eru xotinning bir-biriga xiyonati qattiq la'natlangan, begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qlinib, jazolangan va nikohagi eriga harom hsoblangan.

«Avesto» ning asosan nasriy bayonlaridan iborat bo'lgan «Vendid» qismida oila butunligini saqlash, nikox tartiblari, er-xotining majburiyati, nikohning bekor qilinish sababi va shartlari ancha batafsil bayon etilgan. Alohida Yashtlarda Axuramazda yoki Zardushtiyning kelin-kuyovlarga da'vati, murojatlari keltirilgan.

Axuramazda deydi: «Ey, Spitamon Zardusht (Spitama, Spitamon-Zardushtning laqabi. Uning Spitami qavmidan ekanligiga ishora). Men oilali erkaklarni oilasiz erkaklardan mardlardan ko'ra muhtaram tutaman. Kimda-kim balog'at yoshiga yetgan yigitning uylanishiga moddiy yordam bersa, unga bu dunyoyu u dunyoda savob yog'diraman». «Uylanish, oila qurmoqchi bo'lgan har bir kishiga yul ko'rsatmok va moddiy yordam bermok hamma mazhablarning vazifasidir».

Zardusht deydi: «Ey, oila qurayotgan yigit-qizlar, sizlarni ogohlantirib shuni aytmoqchimanki, har biringiz pokiza hayot yuli g'ayrat qilingiz. Har biringiz yaxshi xulq va yaxshi hatti harakat bilan o'z hayotingizni xurram va sodatli o'tishiga erishing!».

Shunisi harakterliki Zardushtiylar odaticha, qiz bolog'atga yetgach, uni turmushga berish jamoa va ota-ona izmida bo'lsa ham qizni roziligi so'ralgan. Kadxudo (Er), Kadbonu (xotun) mashvaratsiz, o'z roziligisiz qizni yerga berish huquqiga ega bo'lmagan. O'z vaqtida jufti haloli tanlay olmay yoki boshqa jismoniy sabablarga ko'ra turmush qurmay, yoshlari o'tib qolgan ayollar dodgustir (kozi) fatvosi bilan otashkada va uning qaramog'odagi kutubxona, darmongoh (polikilinka) sixatgoh (kasalxona) hamda xujralarda xizmat qilishgan.

Zardushtiylikda ko'p xotinlik kattiy man etilgan ayni paytda hayotni buydoq o'tkazish ham qoralangan. Bolog'atga yetgan qiz bola ota-ona, jamoaning rayini pisanda qilmay, o'zidan zurruyot qoldirishni istamay, qastdan turmushga chiqmay umrguzaronlik qilib yursa, u ko'pga solinib, 25 darra kaltaklanishi bilan jazolangan. Yigit zurriyot qoldirish qobilyati bo'la turib atylab uylanmay yursa, uni badnom qilish maqsadida har doim temir kamar bog'lab yurishga majbur etilgan.

«Avesto» da uy bekasiga turlicha sifatlar berib ta'riflangan:

1. Podshox xotin. Yigit va qiz ota-onalarini roziligi bilan turmush quradilar. Kelinchak, (Sungrok ayol, onaning) mavqei baland bo'ladi.

2. Ayoqxotin, ya'ni «yakkabonu». Yigit biron oiladagi yagona farzand - qiziga uylansa, oldindan bu xonadonni yakkalab, merosxo'rlik qoldirmaslikka va'da beradi, yangi oilada tug'ilgan birinchi ug'il bobosiyu buvisining nomiga o'tkaziladi va bola ularning merosxo'ri bo'ladi.

3. Chokar xotin. Avvalgi jufti halolidan ajralgan erkak yoki ayol o'ziga yangi turmush o'rtok tanlaydi. Zardushtiylik e'tiqodicha, oldingi er yoki xotin vafotidan so'ng ham nikoh soxibi hisoblanadi. Binobarin, ikkinchi er yoki xotin oldingisining chokari hisoblanadi. Shuningdek, er farzand ko'rish ilinjida, birinchi xotin roziligi bilan ikkinchi marotaba uylansa, ikkinchi ayol biinchisiga nisbatan chokar xotin hisoblanadi.

4. O'zboshimcha xotin. Ug'il-qizlar 21 yashar bulgunga qadar erkin jufti halol tanlash huquqiga ega emas. Agar yigit qiz bilan ahdu paymon qilib, ota-onalar rozilisiz nikohdan o'tmokchi bo'lsa, jamoa vakillari bunday to'y mone'lik qilishmagan. Ammo nikoh o'kilganda «tomonlar ota-onalarining roziliklarsiz turmush qurayotganliklari uchun ularga tegajak merosdan mahrum etiladilar, degan jumlaning qushib aytganlar. Bunday nikohga ravo kelin «xudsar - o'zboshimcha xotin»nomini olgan».

5. Sittar xotin. Agar er-xotin uzok muddat yashasalaru zurriyot qurmasalar yoki ko'chaga birov tashlab ketgan chaqaloqni olib farzandxond qilib olishsa, bu oila ayoli sittar xotin bo'ladi.

«Avesto»da nikohni bekor qilish , taloq masalasiga ham keng o'rin berilgan. Eru xotinning teng huquqliligi bu masalalar mohiyatini tashkil etadi.

1. Nikohdan so'ng tomonlari birida asabiy nokislik, 'telbalik alomati zohir bo'lsa, solim tomon bu nikohdan voz kechish huquqiga ega.

2. Erkak martlik qobilyatiga ega bo'lmagan taqdirda ayol taloq qilish imkoniyatidan foydalana oladi.

3. Uch yil davomida er oilaning moddiy jihatidan ta'minlay olmasa, ayolni boqishga qurbi yetmasa, xotin bunday erni tashlab ketishga haqli¹.

4. Agar tomonlar bir-birlarining boshqa er va xotin bilan zino qilganlarini sezsa bunday nikoh harom bo'ladi hamda tomonlar bir-birlarini toloq qiladilar.

5. Agar xotinni hayoti er zulmidan xam ostida qolsa, u o'z juftini toloq qila oladi.

6. Xotin o'z eridan qoniqmay nojuya xatarli xatti harakatlar qilsa, erkak bunday ayoldan voz kecha oladi.

7. Erkak kishi uylanish paytida oldingi xotinini bekitsayu tuydan keyin bu sir fosh bo'lsa, bunday nikoh botil hisoblanadi.

8. Erkak yoki xotin Zardushtiy dinidan yuz o'gursa, ya'ni boshqa dinni qabul etsa taloq vojibdir. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalshganligi uchun boshqa sabablarga ko'ra jumladan ig'vo, tuhmat, er-xotining o'zaro kelishmovchiligi, ota-ona bilan chiqisha olmasligi bohonasi bilan nikohni bekor qilishga yo'l qu'yilmagan. Xotin-qizlar orasida uchrab turadigan buhton, chaqimchilik, notavobinlik, xusumat gunohi azim sifatida qattiq qoralangan: gap tashuvchi ig'vogarlar darra urish bilan jazolangan.

Quyidagi fikr ayol zotining jamiyatda, oilada insoniyat tarixida tutgan o'rniga berilgan eng adolatli bahodek tuyuladi: «Dastlabki kundayoq Axrumazda ayollarga buyuradi: Ey, ayol! Seni e'tiqodli va pahlavon erkaklarni vujudga keltirib, mehr to'la og'ushingda parvarish et, deb yaratdim. Tokim ular nodurustlik va nopoklik ildizini yer yuzidan yuqotsinlar!»².

«Avesto»da ayollar nomi ham ramziy mohiyatga ega ekanligi izohlangan. Masalan, yodgorlik matnida xotinlar Rita Siyabonu yoki Oshabonu deb atalgan. Bu-poklik va rostlik nuri demakdir. Bonu ham charog'on, yorug'lik ma'nosini anglatadi. Matri, ya'ni ona so'zi tarbiyalovchi ma'noni bildirgan. «Avesto»da singil so'zi sovasri shaklida qo'llanilgan bo'lib, muqaddas va xayrixoh mazmunida keladi.

¹ Авесто: Яшт китоби.Т., Шарқ матбаа акциядорлик компанияси. Бош тахририяти, 2001 й. 17-бет.

² Ўша асар.18-бет.

Xullas, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ajdodlarimizning oila va xotin-qizlarni mukarram tutish xahidagi teran fikrlari o'z ifodasini topgan. Zardushtiylik e'tiqodidagi bobolarimiz oilani jamiyatning muqaddas bo'lagi, deb bilib, uning rivoju ravnaqi, mustahkamligi uchun kurashgan.

Arxiv xujjatlarida xotin-qizlardan vaqf yerlarida mutavvaliy, ya'ni boshqaruvchi bo'lganligi xaqida ma'lumotlar mavjud. Xujjatlarga binoan, birinchi vaqf qilgan ayol asl XV asrning mashhur zadogonlaridan biri Shoxruxning murabbiyasi Alouddin Alike Kukaldosh bo'lib, mutavvaliylik vaqf o'tishi bilan uning evarasi Fotima Sulton og'acha ismli ayolga o'tadi. U keyinchalik ish boshqaruvchi etib Affoq begim ismli ayolni tayinlaydi. Bu ma'lumotlar O'zbekiston davlat arxivida №323 fondida saqlanmoqda¹. Uzunligi 29 metr bo'lgan bu xujjat ilk bor Alike Kukaldosh davrida, ya'ni XV asrning boshida tuzilgan. 1506 yilda yangilangan vaqf xujjatlari odatga binoan har 10 yilda qozi tomonidan yangilanib turilgan. Vakfiananing boshida qozining vaqf xaqidagi guvoohnomasi, tamg'asi, yozilgan yili qayd etilgan¹. Undan keyin vaqf kim tomonidan, qaysi joyga baxshida etilganligi yozilgan. Vaqf berilgan yerlarning chegaralari, shart-sharoiti va oxirida daromadning taqsimoti berilgan. Chunonchi, Alike Kukaldosh o'zining deyarli hamma yerlarini-xirot yonidagi Musarrix degan joydagi ziyoratgoxga - gumbazga vaqf kilgan. Uning yerlari Saraks, Taja, Molon, Xirot shahri yahinidagi yerlardir.

¹ A. Muminova. «Xalk ogzaki ijodida ayollar obrazi». Toshkent. 1999 - y. 22-bet/

1.2.Xotin-qizlarning jamiyat boshqaruv tizimida huquq va erkinliklarining tashkiliy asoslari

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng o'tgan 23 yil mobaynida inson huquqlariga oid 69 xalqaro-huquqiy akti (jumladan, BMTning oltita I asosiy konvensiyaviy hujjatini) ratifikasiya qildi. Ularning aksariyati xotin - qizlarning huquq va asosiy erkinliklarini ta'minlash masalalariga daxldordir.

O'zbekiston Respublikasi hukumati Qo'mitaga Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning bajarilishi yuzasidan uch marta milliy davriy ma'ruzasini taqdim etdi. Shundan so'nggisi 2008 yilning avgust oyida topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi SEDAW Konvensiyasini ratifikasiya qilganidan so'ng ushbu hujjatda o'z aksini topgan huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan bir qator milliy mexanizmlarni ishlab chiqdi. Onalik va bolalikni huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy himoyalash, xotin-qizlarning moddiy ahvolini tag'in ham yuksaltirish, jamiyat hayotining barcha jabhalarini isloh qilishda xotin-qizlar ishtirokini yanada kengaytirish uchun yaratilgan barcha sharoitni izchil takomillashtirish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, Prezident farmonlari, qarorlari, hukumat qarorlari, davlat dasturlari xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini yanada yaxshilashga qaratilgandir. Bugungi kunda O'zbekistonda xotii-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning qonuniy asoslari yaratilgan hamda xotin-qizlar huquqlari himoyasining institusional tizimi shakllanganini qat'iy ishonch bilan aytish mumkin. BMTning Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyasiga binoan milliy qonunchilikni isloh qilish bo'yicha bergan tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan respublikada xotin-qizlarni bevosita va bilvosita kamsitishlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan zarur choralar ko'rilmoqda. Mamlakatda qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati darajasida xotin-qizlarning

mavqeini yanada mustahkamlashga doir milliy mexanizmlar izchil takomillashtirib borilmoqda, shuningdek, Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya qoidalari asosida davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosati hisoboti va monitoringi milliy mexanizmi ishlab chiqilib, faol amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2006 yilda O'zbekiston tomonidan ikkinchi va uchinchi qo'shma ma'ruzalar taqdim etilganidan so'ng Qo'mita hukumatga o'zining Yakuniy tavsiyalarini yubordi. Unda Qo'mita tomonidan quyidagi masalalarga e'tibor qaratilgan:

1. Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning oldini olish bo'yicha qonunchilik islohotlarida rivojlanishning pastligi;

2. Sudlar qarorlarida Konvensiya qoidalari haqida ma'lumotlarning kamligi huquqni muhofaza qilish organlarining Konvensiya qoidalari va Qo'mitaning umumiy tavsiyalarini yaxshi bilmasligidan dalolat beradi;

3. Xotin-qizlar qo'mitasining tegishli darajasidagi mavqyega ega emasligi (hukumat tuzilmalariga ta'siri masalalarida) va davlat mustaqilligi qo'lga kiritilganidan so'ng o'zbek xotin-qizlari holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim nodavlat tashkilotlari faoliyatining tugatilishi;

4. Xotin-qizlar va erkaklarning oila va jamiyatdagi roli va majburiyatlariga nisbatan shakllangan patriarxal munosabatlarning va noto'g'ri salbiy fikrlarning (aqidalarining) saqlanib qolgani;

5. Oilalarda zo'ravonlikning mavjudligi, xotin-qizlarni himoya qiladigan aniq bir qonunning yo'qligi, zo'ravonlik sodir etgan aybdor shaxslarning ta'qib etilmasligi va jazosiz qolishi;

6. Siyosat va davlat tizimida hamda barcha sohalardagi boshqaruv lavozimlarida xotin-qizlarning nisbatan kamligi;

7. Xotin-qizlar va bolalar savdosi hamda mehnatidan foydalanishga barham berilmaganligi;

8. Odam savdosidan jabrlanganlar himoyasining talablar darajasida emasligi;

9. Mehnat bozorida jinsiy kamsitishga to'la barham berilmaganligi va oqibatda xotin-qizlarning nisbatan kamroq ish xaqi olishi;

10. Viloyatlarda yashovchi qishloq xotin-qizlarining ahvoriga oid ma'lumotlarning yetarli emasligi, yer egalari bo'lgan mulkdor xotin-qizlarning kamligi;

11. Balog'otga yetmaganlar o'rtasida nikohdan o'tganlar mavjudligi¹.

Ushbu tavsiyalarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini ta'minlash, shuningdek xotin-qizlarni oilada sodir etiladigan zo'ravonliklardan himoya qilish. Siyosiy-huquqiy vaziyat aynan mana shu mantiq asosida tahlil qilinib, tegishli xulosalar va uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berilmog'i kerak.

BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan «O'zbekistonda xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish uchun huquqiy va tashkiliy (institusional) salohiyatni rivojlantirish» loyihasi tomonidan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti va huquqiy masalalarni o'rganish markazi ko'magida tayyorlandi.

2007 yili xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitishlarga barham berish qo'mitasining tavsiyalarini bajarish bo'yicha Milliy harakat rejasining qabul qilinishi xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan batafsil tadqiqotlar o'tkazish, jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning chet el va O'zbekiston tajribasini o'rganish, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan sabab va oqibatlarni aniqlashni kun tartibidan chiqarish uchun asos bo'la olmaydi.

Mazkur tadqiqotning umumiy maqsadi - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham

¹ Ўзбекистон Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008 й.

berish to'g'risidagi konvensiya nuqtai nazaridan tahlil qilish va amalda qo'llanilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va hal etishga doir takliflarni ishlab chiqishdan iboratdir. Bunda Xotin-qizlarga nisbatan barcha kamsitishlarga barham berish qo'mitasining Yakuniy tavsiyalarida aks ettirilgan masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlarini taminlaydigan xalqaro andozalar va qoidalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan quyidagi xalqaro-huquqiy aktlarning chuqur tahliliga asoslangan: Inson huquqlari umumjaxoni deklarasiyasi (1948 yil), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966 yil), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966 yil Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya (1949 yil), Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1952 yil), Oilali ayolning fuqaroligi to'g'risidagi konvensiya (1957 yil) Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (1979 yil), Pekin deklarasiyasi va Harakat platformasi (1995 yil).

Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining quyidagi qonunchilik aktlari tahlil qilindi: O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasining Senati to'g'risida», «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatning modernizasiya qilishida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishi to'g'risida»gi konstitusiyaviy qonunlari, «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovi to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida», «O'zbekistoni Respublikasi Qonunchilik palatasi deputatining va Oliy Majlis Senati a'zosining maqomi to'g'risida», «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida», «Joylardagi davlat hokimiyati to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida», «Sudlar to'g'risida», «Siyosiy partiyalar to'g'risida», «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida», «O'zbekiston

Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida», «Ijtimoiy jamg'armalar to'g'risida», «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida», «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Fuqarolik-prosessual, Oila, Soliq, Mehnat, Jinoyat, Jinoyat-prosessual, Ma'muriy javobgarlik kodekslari, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida», «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida», «Ta'lim to'g'risida», «Fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida», «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunlari.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, mamlakat oldida bu borada turgan muhim masalalardan biri xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy mavqeini yanada oshirishdan iboratdir.

O'zbekistonda 15 millionga yaqin xotin-qiz istiqomat qiladi. Ulardan 60 foizi—qishloqda yashaydi va mehnatga layoqatli xotin-qizlarning qariyb 50 foizi ish bilan band.

2005 yilning yanvar oyidan boshlab parlamentdagi xotin-qizlar guruhi fuqarolik forumlari ishida faol ishtirok etib, parlament a'zolarining gender sezgirligini oshirish bo'yicha ish yuritmoqdalar, «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarga doir kafolatlar to'g'risida»gi qonunni qabul qilishni, shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni isloh etish taklifi bilan chiqmoqdalar¹.

Hozir mamlakat parlamentining Qonunchilik palatasida xotin-qizlar 18 foizni, Senatida 15 foizni tashkil etadi. 2000 yilda ushbu raqam 8,2 foizdan oshmas edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va malakali kadrlarga ehtiyojning oshishi davrida, ishlab chiqarishning texnik jihatdan takomillashib borishi va yangi tarmoqlarning paydo bo'lishini hisobga olib, mehnat bozoriga xotin-qizlarni keng jalb qilish uchun ularni o'qitish va malakasini muttasil oshirib borish talab qilinadi.

¹ Ўзбекистон Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008 й.

Ushbu maqsadga erishishda izchillik bilan amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi xam muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatdagi 64 ming tadbirkordan 20 foizdan ortig'ini xotin-qizlar tashkil qiladi. Kichik va o'rta korxonalariga mansub 8 ming xo'jalik subyektini xotii qizlar boshqarmoqda¹.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xotin-qizlarning turmush darajasini yanada yo'ksaltirishga qaratilgan bir qator qonunlar va qonunosti aktlari qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 18-moddasiga binoan «O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart».

O'zbekiston Konstitusiyasining 46-moddasida jamiyatning barcha sohalarida xotin - qizlar va erkaklarning teng huquqliligi mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-moddasida «Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar», deb alohida qayd etilgan. «Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalanadilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar». (19-modda).

Shuningdek, Jinoyat kodeksi ham xotin-qizlar huquqlarini buzish yoki cheklashni taqiqlaydi. Masalan, 104, 105, 118, 119, 121-moddalarda badanga shikast yetkazganlik uchun, nomusga tegish, xizmat, moddiy yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'lgan ayolni jinsiy aloqa qilishga yoki jinsiy ehtiyojni g'ayri tabiiy usulda qondirishga majbur etganlik uchun javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 148-moddasiga muvofiq ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatganlik uchun ishga olish

¹ «Oila va jamiyat jurnali» jurnali. Toshkent 2005 yil. №2 son.

huquqiga ega mansabdor shaxslar eng kam ish haqining yigirma besh baravari miqdorida jarima to'lashga yoki uch yilgacha bo'lgan muddatga muayyan huquqlardan mahrum etish yohud ahloq tuzatish ishlariga — jinoiy javobgarlikka tortiladilar¹.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va bo'limlarining roli quyidagilardan iborat:

- xotin-qizlar holatiga doir fikrlar va sharoitlarni aks ettiradigan siyosatni belgilash, ishlab chiqish va amalga oshirishda hukumat uchun asosli maslahatlar taqdim etish maqsadida hamkorlik qilish;

- xotin-qizlar muammolari bilan shug'ullanadigan guruh, tashkilot, birlashmalar va xotin-qizlar nodavlat notijorat tashkilotlarining maslahatlari asosida xotin-qizlarning turli-tuman fikrlari ifodachisi bo'lish;

- hukumat va xotin-qizlar sektori o'rtasida axborot almashinuvi jarayonida vositachi sifatida faoliyat yuritish;

- tegishli sohalar uchun o'tkaziladigan va tashkilotlar uchun qiziqish uyg'otadigan siyosatni tahlil qilish;

- O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hududiy bo'limlarining vazifa va majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydigan samarali boshqaruv mexanizmlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash².

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi davlat va jamoat tashkilotlari hamda NNTlari bilan hamkorlikda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va erkinliklar kafolatlari to'g'risida»gi qonun loyihasini tayyorladi. Bu loyiha milliy va xalqaro ekspertizadan o'tib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga ko'rib chiqish uchun yuborildi.

«Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonunning 7-moddasiga ko'ra, davlat ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni qo'shimcha kafolatlar bilan ta'minlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 148-modda. Toshkent. 2012 y.

² Ўзбекистон Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008 й.

Ko'p bolali ayollarni va nogiron ayollarni kasanachilik mehnatiga jalb qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng o'tgan 69 yil davomida parlamenti bo'lgan suveren davlatlar soni yetti baravar ko'paydi. Xotin-qiz parlamentariylar soni esa bu davrda bor yo'g'i to'rt baravar oshdi. 1975 yili 26 ta parlament bo'lib, undagi xotin-qizlar soni 3 foizni tashkil qilgan. 1995 yilga kelib 176 parlament tashkil etilib, ularda ayollar 11,6 foizga, senatorlar orasida esa 9,4 foizga yetdi. Shuni ta'kidlash kerakki, xotin qiz-parlamentariylarning eng ko'p soni 1988 yilda kuzatildi, bunda ularning soni sh 14,8 foizni tashkil etgan¹.

Siyosiy qarorlar qabul qiladigan organlarda, avvalo, parlamentda xotin-qizlar sonining ortishi bevosita shu davlat saylov tizimining shakliga bog'liq. Ko'pchilik rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng asoslarda siyosiy qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatlarini amalga oshirishning eng qulay usullaridan biri proporsional saylov tizimini joriy etishdir. Bunda vakillik organidagi joylar turli partiyalardan yig'ilgan ovozlar ro'yxatiga mos ravishda taqsimlanadi. Xotin-qizlar uchun har bir hududdan bitta deputat saylanadigan majoritar saylov tizimi nisbatan samarasiz hisoblanadi.

Bunday holatning sababi oddiy. U jamiyat va huquqiy davlat tuzilishining demokratik asoslarini yaratishda ko'ppartiyaviylikka asoslanishiga borib taqaladi. Bunda gender tengligini ta'minlashda an'anaviy rolni so'l partiyalar o'ynaydi. Ular ko'pchilik hollarda, birinchidan, ikkala jins vakillarining amaldagi teng huquqliligiga erishish tamoyillarini o'z nizomlarida belgilaydi, ikkinchidan, xotin-qizlar partiyaga rahbarlik qilishi, saylovlarda o'z nomzodlarini ko'rsatishida kvotalar ajratadi.

G'arbiy Germaniyada sosial-demokratik partiya 2005 yildagi saylovlardan keyin nafaqat eng ko'p sonli partiya «yashillardan» keyin, balki eng ko'p xotin-qiz a'zosi (27%)bo'lgan partiya bo'lib qolganining boisi ham shunda.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси: 2008 й 9-сон. 338-б.

Mutaxassislar bunday sharoitda Bundestag soʻl partiyalari fraksiyalarida va joylardagi parlamentlarda xotin-qiz-deputatlar sonining ortganligini kuzatganlar.

BMTga aʼzo 192 davlatdan 182 tasida parlament mavjud.

Dunyo parlamentlarining 9 tasida xotin-qiz-deputatlar yoʻq, 173 mamlakat parlamenti-da ayollar vakila qilib koʻrsatilgan, shundan:

- 83 mamlakatda kvotalardan foydalanadi,
- yana 15 mamlakatda kvotalardan avval foydalanilgan yoki taklif etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasining «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylor toʻgʻrisida»gi va «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylor toʻgʻrisida»gi qonunlarida ikkala jins uchun ham teng saylov andozalari belgilangan erkaklar va xotin-qizlar saylov jarayonida teng huquqlidir.

Xotin-qizlar va erkaklarning amaldagi tengligi siyosiy, tashkiliy, moddiy, ijtimoiy ahloqiy va huquqiy vositalaridan iborat kafolatlar tizimi orqali taʼminlanadi. Siyosiy bino kafolatlar — Oʻzbekiston Respublikasi Konstitusiyasida mustahkamlangan demokratik saylovlarning asosiy tamoyil va andozalaridir. Tashkiliy kafolatlar—jinsidan qatʼiy nazar barcha deputatlikka nomzodlar uchun saylovoldi kampaniyasini oʻtkazishda hamkorlik koʻrsatishga doir qoidalardir. Ijtimoiy-ahloqiy kafolatlar — huquq va erkinliklarni toʻgʻri tushunish hamda ularning xotin-qizlar va erkaklar tomonidan foydalanilishidir¹.

Afsuski, Oʻzbekistonda siyosiy partiyalar tomonidan nomzodi koʻrsatilgan xotin-qizlarni siyosiy partiyalar, xotin-qizlar NNTlari va xotin-qizlar elektorati tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmi hali yetarlicha shakllanmagan. Siyosiy partiyalarda xotin-qiz yetakchilarga nisbatan hurmat-eʼtibor koʻrsatish madaniyati toʻla qaror topmagan, siyosiy partiyalar tomonidan yaratilgan tizimlar doirasida rahbar lavozimlarga tavsiya etish amalda kutilgan darajada ish bermayotir.

Xotin-qizlarning parlament saylovida faol ishtirok etishiga monelik qiladigan sabablardan yana biri, asrlar davomida shakllangan «xotin kishi

¹ Ўзбекистон Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008 й.

ro'zg'origa qarasin» qabilidagi aqidalar bo'lib, bunday qarashlar xotin-qizlarning deputatlikka nomzodlar safidan joy ololmasligiga avval-boshdan sabab bo'ladi.

Ijro hokimiyatning o'ziga xos jihatlaridan biri shundan iboratki, uning asosida va faoliyat yuritishida mazkur organlarning vertikallik tamoyili va ushbu tamoyilga binoan bo'ysunishga amal qilingandagina ushbu hokimiyat samarali faoliyat ko'rsata oladi. Bunday talab har bir davlat uchun dolzarbdir. Ijro hokimiyati organlarida xotin-qizlarning roli va o'rni muammosi turli davlatlar aholi tushunchasida hukumat, shuningdek, muayyan vazirliklar boshida turgan xotin-qizlar va erkaklar shaxsi bilan bog'liqlik holda shakllanishining boisi ham shunda.

O'zbekistonda keyingi paytlarda xotin-qizlarning ijro hokimiyati organlaridagi sonini oshirishga qaratilgan izchil harakatlar amalga oshirilmoqda. Masalan, oxirgi paytda ijro hokimiyati organlarida rahbarlik lavozimlarini 15 foiz xotin-qiz egallagan, ya'ni: Vazirlar Mahkamasida — 16,7 foiz; Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashida - 12,5 foiz; viloyatlar hokimlari va Toshkent shahar hokimi o'rinbosari lavozimida — 11,9 foiz.

O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasining raisi ayni paytda Bosh vazirning o'rinbosari bo'lib, viloyat xotin-qizlar qo'mitalarining raislari tegishli hudud hokimlarining o'rinbosari hisoblanadilar. (14 viloyat, 219 tuman (shahar) hokimi o'rinbosarlari).

Yana shuni ta'kidlash lozimki, fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida erkaklar va xotin-qizlarning fikrini teng inobatga olishning foydali va ustuvor masala ekaniga oid ijtimoiy tasavvurini shakllantirishga qaratilgan tushunchasini mustahkamlash borasidagi ishlar ham yanada samaraliroq yuritilmog'i lozim.

Sud hokimiyatiga oid holatdagi muammo ikki xil sharoit bilan izohlanadi. Birinchidan, rivojlangan davlatlarda sudyalari va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari eng ko'p haq to'lanadigan xizmatchilar jumlasidan joy olgan, shuning uchun bu sohada erkaklar bilan xotin-qizlar o'rtasida ish joyi uchun raqobat kuchli. Ikkinchidan, qator davlatlarda (Isroil va musulmon davlatlarida)

dinga asoslangan sudlar amal qiladi, ularda xotin-qizlarga odil sudlovni amalga oshirishi uchun imkoniyati berilmaydi¹.

Sudya, advokat, prokuror, maslahatchi yurist va umuman yurist bo'lib ishlash uchun maxsus ta'lim olish kerak. Shu nuqtai nazardan huquqni shartli ravishda genderga nisbatan neytral mutaxassisliklar jumlasiga kiritish mumkin. Bu esa yuridik oliy o'quv yurtlari va fakultetlariga kirayotgan yigit va qizlar sonining taxminan bir xil demakdir. Muammolar esa ishga kirish paytida vujudga keladi, chunki ko'pchilik hollarda ishga kirish uchun mehnat staji kerak bo'ladi, bundan tashqari qizlarning ona bo'lish ehtimoli sababli ularga ishonarli xodim sifatida qaralmaydi. Bunga o'xshash holatlar rivojlangan xorijiy davlatlarda ham ko'p kuzatiladi.

Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Pekinda o'tgan IV Xalqaro konferensiya qarorlarida iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonida, jumladan, moliyaviy, byudjet, tijorat va boshqa turdagi iqtisodiy siyosatni, shuningdek soliq va ish haqini tartibga soladigan me'yorlar tizimiga doir siyosatni ishlab chiqishda xotin-qizlarning deyarli ishtirok etmasligi katta xavotir bilan ta'kidlangan edi. Qayd etilganlardan tashqari barcha korporasiyalar, jumladan transmilliy korporasiyalar tomonidan milliy qonunlar va kodekslar, ijtimoiy sug'o'rta sohasidagi me'yorlar, xalqaro bitimlar va konvensiyalarga amal qilishni ta'minlash; xotin-qizlarning siyosatga, iqtisodiyot va moliya vazirliklari tomonidan ishlab chiqilayotgan dasturlarga o'z hissalarini qo'shishi uchun yo'naltirilgan mexanizmlarni yaratish; makro va mikroiqtisodiy va ijtimoiy ishlab chiqarishda gender tahlili uslublaridan foydalanish va bu siyosatning oqibatlarini hisobga olish tavsiya qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatga oid tashabbuslar va ularni, jumladan, iqtisodiy sabablarga ko'ra milliy tadbirkorlar, kasaba uyushmalari va xotin-qizlar jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash (byudjet va turli iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarni tayyorlash asnosida) haqida so'z borishi kerak. O'z navbatida, bu nafaqat tegishli davlat organlari rahbarlari, balki xususiy tadbirkorlarni va

¹Ўзбекистонда Хотин-қизлар ҳуқуқларини таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Тошкент 2008- у.

kasaba uyushmalari sardorlaridan ham gender tengligini hisobga olishni talab qiladi. Qariyb butun dunyoda tadbirkorlikda ham, kasaba uyushmalarida ham erkaklarning qo'li balanddir. Xususan, AQShning yuzta yirik kompaniyasi kengashining 1315 nafar a'zosidan 7,5 foizini va yirik kasaba uyushmalari rahbarlarining esa 11,5 foizinigina xotin-qizlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida yangi asr boshida erkaklar va xotin-qizlarning nisbati 56 va 44 foizni tashkil qilgan edi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faollik darajasi erkaklarnikidan past. Xotin-qizlar uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at, fan kabi yo'nalishlar an'anaviy mehnat sohalariga aylangan.

2013 yili iqtisodiyotning turli sohalarida 46 foiz xotin-qiz faoliyat yuritardi edi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida band bo'lgan xotin-qizlarning soni 4 millionni tashkil qiladi, ularning faolligi erkaklarnikidan 15,8 foiz kam.

Kredit olgan tadbirkor xotin-qizlar soni 1991 yil 2 foizdan 2007 yil 25 2013 yilda 38 foizgacha oshdi. O'zbekistonda har yili 400 mingdan ortiq ish o'rni ochilib, ularning 40 foizdan ko'progi xotin-qizlarga mo'ljallanadi.

O'zbekiston tadbirkor ayollar assosiasiyasi tomonidan xotin-qizlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan "Tadbirkor ayol", «Ayol va jamiyat», «Kichik va o'rta biznes», «Ayollar va ularning huquqlari» mavzularida treninglar o'tkaziladi. 2010 yil ana shunday treninglarda 7500 xotin-qiz qatnashib, ulardan 1000 nafari o'z shaxsiy ishini ochdi. To'rt yuzdan ortiq xotin-qiz mahalliy kasb-hunar va hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar bo'yicha ta'lim olmoqda¹. Shu bilan birga, O'zbekiston Bolalar jamg'armasi, "Ayol va salomatlik", "Mehr", "Ayollar resurs markazi", instituti kabi xotin-qizlar muammolarini hal etishga qaratilgan va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Biroq, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan barcha chora-tadbirlar, davlat sektorida ishlaydigan xotin-qizlarga bo'lgani kabi, nodavlat sektorda ishlaydigan xotin-qizlarga ham taalluqlidir degan tushuncha hali to'la shakllangan emas.

¹ «Oila va jamiyat jurnali» Fan nashriyoti. 2013 й 4-сон. 8-б.

II-BOB. MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLARNING DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDAGI FAOLIYATI

2.1. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida xotin-qizlarning tutgan o'rni

Aholining yarmidan ko'pini xotin-qizlar tashkil etgan O'zbekiston Respublikasi uchun xotin-qizlarning ijtimoiy hayotidagi o'rni mavqeyi, faollik darajasi ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish va yangi qadriyatlarni shakllantirishdagi roli jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham inson manfaatlari, xotin-qizlar masalalari Respublika Prezidenti va xukumatini doimiy diqqat markazida turibdi. Prezidentimiz tomonidan mamlakatda 1997 yilning «Inson manfaatlari», 1998 yilni «Oila yili», 1999 yilni «Ayollar yili», 2000 yilni «Sog'lom avlod yili», 2001 yilni esa «Ona va bolalar yili», 2012 yil «Mustahkam oila yili», 2013 yil, «Obod turmush yili», 2014 «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi fikrimizning yorqin dalilidir. Sog'lom avlodni tarbiyalashga, ma'naviy boy, axloqan yetuklik rivojlangan, yuqori bilimli har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirilmoqda. Bu boradagi Davlat dasturlarini hayotga tadbiiq etishda bevosita xotin-qizlar ijtimoiy faoligini kuchaytirish, ularni mamlakatda kechayotgan shiddatli jarayonlarga munosib ulishini qo'shishi masalalariga bog'liq. Shunday qilib, jamiyat ishlariga xotin-qizlarni faol ishtirok etishini ta'minlamasdan, ularning ijtimoiy axvolini yaxshilamasdan turib mamlakatdagi tub isloxlarni amalga oshirish mumkin emas. Chunki «jamiyatning demokratik o'zgarishlar yo'lidan nechog'lik ilgarilab ketgani shu jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati, uning madaniy ma'naviy saviyasini belgilaydi»¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 martdagi «Davlat va jamiyat boshqaruvida xotin - qizlarning rolini oshirish to'g'risida»gi farmoni respublika hayotidagi muhim o'zgarishlardan biri bo'ldi. Bolalarni tarbiya qilish sharoitini yaxshilash va ayollarning mehnat faoliyatidagi qiziqishlarini oshirish

¹ И.А.Каримов. «Юксак маънавият енгилмас куч» Тошкент. «Ўзбекистон». 2008 йил, 114-115 бетлар.

maqsadida «Ayollar uchun qoʻshimcha imtiyozlar toʻgʻrisida» qonun qabul qilindi. Bundan tashqari, ayollarni ijtimoiy, siyosiy sohaga faolroq jalb etish va ularning oiladagi rolini oshirish maqsadida 2004 yil 25 mayda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining «Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi farmoni va ushbu farmon ijrosini taʼminlash boʻyicha 2004 yil 29 iyunda Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi rolini oshirish boʻyicha oʻzgarishlar siyosiy sohaga ham taʼsir qildi. Xususan, «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov toʻgʻrisida»gi qonunning 22-moddasiga koʻra siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasi, Oʻzbekistonda xotin-qizlar huquqlarini taʼminlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xotin-qizlarning deputatlikka nomzod etib koʻrsatilishida 30 foizlik kvota belgilandi.

Bu qoida xotin-qizlarning saylovoldi kampaniyasidagi faolligini oshiradi va ularning deputat etib saylanishi borasidagi imkoniyatlarini kengaytiradi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasida ayollar sonining koʻpayishi uchun sharoit yaratadi. Hozir Qonunchilik palatasining deputati 21 ayol (18 foiz) va 18 ayol (15 foiz) Oliy Majlis Senatining aʼzosi hisoblanadi. Ijro organlarida ayollarning umumiy soni 3,4 foiz, sud organlarida esa 22,7 foizni tashkil qiladi.

Demokratiya va huquq tamoyillariga nafaqat davlat organlari, balki alohida shaxslar tomonidan ham rioya etilishi huquqiy davlat uchun muhimdir. Bunday davlatda insonning huquq va erkinliklariga hurmat, inson qadrini tahqirlash, insonga nisbatan zoʻravonlik qilish, ayniqsa, qullik, odam savdosi va uni ekspluatasiya qilish bilan mutanosib emas.

Shuni taʼkidlash kerakki, oʻtish davrining eng muhim va yechimi kechiktirib boʻlmaydigan muammolaridan biri — oiladagi zoʻravonlik muammosidir. Umumiy koʻrinishda oiladagi zoʻravonlikni quyidagicha farqlash mumkin: xotin-qizlarga nisbatan zoʻravonlik, bolalarga nisbatan zoʻravonlik va qarindoshlarga nisbatan zoʻravonlik.

Oilaviy munosabatlarda teng huquqlilikka erishish — inson huquqlari tizimiga doir ijtimoiy-demokratik institutning tarkib topishi natijasidir. Uning vujudga kelishiga jinslarning davlat tuzilmalarida, hukumat bilan va o'zaro munosabatlarida tegishli normalarni topishning murakkab jarayoni sabab bo'lgan. Tarix shundan dalolat beradiki, teng huquqlilik g'oyasi hamda uni amalga oshirish odob-ahloq, ma'naviy-madaniy va diniy jihatlardan iborat majmuani o'z ichiga oladi.

Xotin-qizlar deyarli barcha davlatlar aholisining yarmidan ko'pini tashkil qiladi, shuning uchun aholi yarmining huquqlari poymol qilinganda, amalda demokratiyaga asoslangan jamiyat to'g'risida gapirish qiyin. Xotin-qizlar ustidan zo'ravonlik muammosi davlatdagi nosog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit va yangi ijtimoiy munosabatlarni yaratishdagi qoloqlikdan dalolat beradi. Garchi insonga nisbatan barcha turdagi zo'ravonlik va kamsitishlarni bartaraf etish taqozo etilsada, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik alohida ahamiyatga muhtoj, chunki bu holat butun jamiyatga tegishlidir.

Shaxs va jamiyat munosabati, barkamol shaxsni, komil insonni tarbiyalash insoniyat taraqqiyotini barcha bosqichlarida eng dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida tadqiqotchilar diqqatini jalb qilib kelgan.

Jamiyat shaxslarning moddiy ne'matlar hamda o'z-o'zini qayta ishlab chiqish faoliyatidir. Bu jarayonda jinslar o'ziga xos funksiyalarni va rollarni bajaradilar. Jinslarning biofizologik tizimiga ko'ra moddiy ne'mat yaratish jarayonida bosh rolni erkak, o'z-o'zini qayta ishlab chiqishda esa bosh rolni ayol bajaradi. Shunga ko'ra erkaklar asosan moddiy iqtisodiy taraqqiyotini, ayollar esa uning uzluksiz rivojlanishini ta'minlab turadilar. Ayol va erkak jinsi zimmalaridagi bu tabbiy, biologik funksiyalarni bajarish davomida o'zaro munosabatga kirishadilar. Jamiyat va oilaning o'zaro aloqadorligi u ayollarning xayotidagi obro' e'tiborini darajasini belgilashi ilmiy nazariy jihatdan asoslanmog'i kerak, oila an'analari, urf-odatlar, milliy qadriyatlar tizimini shakllanishida xotin-qizlarning rollari kattadir.

Mintaqamizda xotin-qizlarning tabiiy va ijtimoiy muhit ta'sirida ijtimoiylashuv jarayoni tarixiylik va mintaqaviylik nuqtai nazaridan tahlil etilib, bu muhitni kishilik hayotini ilk davridan to shu kunga qadar xotin qizlar turmush tarziga, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ta'siri o'rganilgan. «Ona ahli, ayolning pokizaligi, mehr-muruvvati, sadoqati va vafodorligi oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omildir»¹- degan edi I.Karimov.

Agar ayolga oilalik qismati bitilmaganda, unga maxbubalik va farzand tarbiyasi yuklatilmaganida, u buyuk kashfiyotchi, eng zukko va tadbirkor davlat raxbari bo'lardi, albatta ammo ayolga o'ta murakkab va sharafli vazifa avlodni davom ettirish, jamiyatni taraqqiyotida ishtirok etish vazifasi yuklatilgan va shuning uchun ham qadimdan uni e'zozlab kelganlar.

Davlat har qancha qudratli bo'lmasin uning ma'naviy asoslari pishiq bo'lmasa unda ayol ishtirok etmasa, betakror va qadimiy qadriyatlarni tiklash, xalqimizning ma'naviy, ruhiy ehtiyojlarini qondirish, mafkurasi mustahkam barkamol jamiyat qurish, barkamol avlodni kamol toptirish mumkin emas. Mamlakat taraqqiyoti ayolning jamiyatdagi taraqqiyot o'rniga qarab belgilanadi.

Ayolning o'zi, uning borligi ma'naviyatidir, ayol olam uchun yaralgan. Millatning boshlanishi ayoldan, millatning ma'naviyatli ma'rifatli bo'lishi, barkamol topishi ham ayoldandir. Bugun esa u kelajak orzulari bilan XXI asrga qadam qo'ydi.

Jenevada ta'kidlanganidek, O'zbekistonda ayollar ahvolini yaxshilash bo'yicha eng samarali milliy mexanizim yaratilgan. Zero, sobiq ittifoq davlatlari orasida faqat bizning respublikamizda ayolarning barcha ijtimoiy imtiyozlari saqlanib qolindi. Shuningdek har yili hukumatimiz ular uchun yangidan-yangi imtiyozlar va imkoniyatlar yaratmoqda.

Samarqand tadbirkor ayollar uyushmasi 1992 yilda tashkil topgan, bu uyushmaning mingdan ziyod a'zolari mavjud bo'lib ular xalq xo'jaligini turli sohalarida xizmat qilishadi¹. Tadbirkor ayollarga xuquqiy, amaliy maslahatlar

¹ И.А.Каримов. Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент 2008 й. 17-бет.

berish, ularga yo'l yo'riqlar ko'rsatish uyushmaning bosh vazifalaridandir. Tadbirkor ayollar uyushmasi o'z tadbirlik faoliyatiga doir adabiyotlarga boy kutubxona, tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi zamonaviy kompyuter texnikasi, elektron pochta, internetga ega.

Tadbirkor ayollar uyushmasi o'z a'zolariga quyidagi sharoitlarni yaratadi.

- Yordamchi programmalar axborotlar berish:

- Tadbirkorlik, to'g'ri boshqarish yuridik maslahat:

- Xalqaro dasturlar asosida tadbirkorlik mavzulari bo'yicha smenarlar o'tkazish:

- Davlat tizimida ishlovchilar, xuquqni himoya qilish organlarida, soliq, bojxona xizmati va boshqa sohalarda ishlovchilar bilan, dumaloq stol atrofida suhbat olib borish:

- Konsultasiya va amaliy yordam berish:

- Tadbirkorlikning xar qanday shakillariga amaliy yordam berish.

Xunarmandlar markazi «To'maris» Samarqand viloyat «Tadbirkor ayollar» uyushmasi qoshida tashkil topgan. Xotin-qizlar o'rtasida uyushtirilayotgan tadbirlar haqida so'z borar ekan, xunarmandchilik, xalq amaliy sanati xaqida ham gapirib o'tmok kerak. Uyushmaning Amerikalik Dizayner bezakchi Meri Vayt-Sayd bilan birgalashib o'tkazgan seminarlari yaxshi natijalar berdi. Ipak gilamlar to'qish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga keyingi paytda G'arbdagi hamkorlar ham qiziqib qolishgan. Tadbirkor ayollar uyushmasi Germaniyadagi «Xunarmandlar» palatasi bilan birga bir guruh ayollarni shu kasbga o'rgatmoqda. Shuningdek, «Konterpart-Konserizm» «Soros», «Yevroaziya» bozor munosabatlari taraqqiy etish markaziga o'xshash tashkilotlar ishlarimizga qiziqib, amaliy yordamlarini bermoqdalar.

Xunarmandlar markazi «To'maris»ning asosiy faoliyati hunarmandchilikni rivojlantirish, hunarmandlar huquqini himoya qilish, hunarmandchilikni turli

¹ «Oila va jamiyat» jurnali. «Fan» nashriyoti, 2006 yil 3-son.

sohalari bo'yicha o'quv darslari tashkil etish, xalq amaliy san'ati yarmarkalarini tashkil etishga qaratilgandir. Hozirgi vaqtda bu markaz 100 dan ortiq hunarmandlarni birlashtirgan bo'lib ular xalq musiqa asboblari, milliy qo'g'irchoklar, chitga ishlov berish, kashtaduzlik va boshqa ko'plab shunga o'xshash ishlarga bag'ishlangandir. Bundan tashqari markaz qoshida milliy folklor ansambili tashkil etilgan. Markaz a'zolari Respublikada va xalqaro ko'rgazmalarida ishtirok etishgan va sovrindor ham bo'lishgan.

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqini milliy uyg'onishi, tarixiy qadriyatlari va ma'naviy me'rosiga chuqur hurmat, ehtiromni shakillanishi xotin-qizlar orasida ham milliy g'oyani diniy an'analarni qaytadan uyg'onishga olib keldi. Buning oqibatida ko'pgina ayollar uy bekasiga aylanib shu bilan bir qatorda diniy urf odatlarni bajarish yo'liga o'tmoqda. Bu xotin-qizlarni dunyoviy bilim ma'rifatdan uzoqlashishi ijtimoiy jarayondan chetlanishi, siyosiy xuquqiy dunyo qarashi torayishi, umumjahon qadriyatlarda belgilanish kabi mamlakat istiqboli uchun zararli bo'lgan oqibatlar olib kelishi va aqidaparastlik va diniy eksterimestik hollar rivojlanishiga hissa bo'lishi mumkin.

Mamlakat miqyosida bozor munosabatlariga o'tish davrida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ayollarni ma'lum qismi savdo-sotiq tijorat yo'liga kirishi ularni oilada sog'lom muhit yaratishi va bola tarbiyasiga oid mas'uliyatini cheklamoqda. Ayollarni iqtisodiy mustaqilligi bir tomondan oilaning mustaxkamlanishiga putur yetkazgan bo'lsa, boshqa tomondan bolalarni qarovsiz qolishi va mukammal tarbiyasi oqibatida jamiyatda ma'naviy qashshoq nosog'lom avlod sonining o'sishiga sabab bo'lmoqda¹.

Bozor munosabatlari tufayli mulkning xususiylashuvi mamlakat ichida ko'plab kichik korxonalar, hissadorlik jamiyatlari turli-tuman shirkatlar kabi katta-kichik muassasalarni paydo bo'lishiga imkon topildi. Bunday korxonalar va muassasalarda ish vaqtini chegaralanganligi ish vaqtini yomonligi zamonaviy texnologiyani yetarli emasligi kabilar ko'plab xotin-qizlarni ham jismoniy ham

¹ Қаранг: «Агар аёл ишласа». «Ёш куч». 2003 йил, №3.

ruhan charchog'iga sabab bo'ldi, bu hol ayollarni sog'lom bola tug'ish va tarbiyalash imkoniyatlarini cheklamoqda.

O'zbekiston o'ziga xos xususiyatga ega respublika bo'lganligi tufayli aholining ko'pchilik qismi xususan xotin-qizlarining 60 % dan ko'prog'i qishloq joylarida istiqomat qiladi. Qishloq aholisi ma'lum qismi turli tarzda noqulayligi, zamonaviy texnikani yetishmasligi, qo'l mehnatning og'irligi va uzluksizligi ish sharoitini yomonligi, ekologik vaziyatni keskinligi, iqlim sharoitining o'ziga xosligi xotin-qizlar uchun o'z bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatlarini yetarli emasligi, bola tarbiyalash, uy ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanish dam olish kabi zaruriy burchlarni bajarish uchun bo'sh vaqt yetishmasligi va x.k. Qishloq ayollarining ahvolini yaxshilash ularni zamon talabi asosida shakllantirish, sog'lomlantirish og'ir jismoniy mehnatdan xalos etish, turmush tarzlarini qulaylashtirish, komil farzandlarni tarbiyalashdagi mas'uliyatlar va juda ko'plab vazifalarni tezroq ko'rib chiqishni talab qiladi.

Bugun olamga yuz tutib borayotgan O'zbekistonda ayolga asl e'tibor va g'amxo'rlik, mustaqillikni ilk kunlaridan boshlangan desak yangilishmagan bo'lamiz. Ya'ni ayolga munosabatda ham islohot yuz berdi. 1993 yili birinchi va ikkinchi darajali «Sog'lom avlod uchun» orden ta'sis etildiki, natijada ayolning qadri, obro'-e'tibori ancha yuksaldi. Ayol manfaatini himoyalab turadigan respublika xotin-qizlar qo'mitasi va uning viloyatlardagi bo'limlari, oila va bolalar markazi «Oila» ilmiy tadqiqot markazi tadbirkor, ijodkor ayollar uyushmasi tashkil etilishi fikrimizning dalilidir. Bizda esa ayollar hayoti va turmushini yaxshilashga doir qator farmonlar e'lon qilindiki ularning bari ayolni ham jismonan, ruhan sog'lomlashtiradi. Jumladan 1999 yil 18 martida Prezident xotin - qizlarni ijtimoiy muxofazasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida farmon o'ta zararli va o'ta og'ir mehnat sharoitida ishlayotgan ayollar daromadiga imtiyozli soliq solish to'g'risida esa Vazirlar Mahkamasi qarori e'lon qilindi¹.

O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotida oila rolini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy va moddiy ahvolini yanada yaxshilash, ularning davlat va jamiyat

¹ «Аёл жамият нигоҳида». «Қадрият» газетаси, 2006 йил, 15 декабр.

qurilishidagi rolini kuchaytirish, ularning ijtimoiy hayotining barcha sohalarda faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli risolasida ayollar va yoshlarning jamiyat xayotidagi o'rni va mavqeyi to'g'risidagi masala alohida o'rin tutadi. Unda ayollar mehnatini yengillashtirish ayniqsa turmush sharoitini yaxshilash yuzasidan kerakli tadbirlar amalga oshirish, ayollar o'rtasida olib boriladigan ishlarni shakllarini kengaytirish, ularning ilmiy va madaniy saviyasini ko'tarish yoshlar bilan ishlash masalalariga e'tiborni kuchaytirish zarurligi uqtirildi. Prezidentni xotin-qizlarga ko'rsatayotgan bu g'amxo'rliqi mamlakatimizning barcha davlat va jamiyat tashkilotlari tomonidan mas'uliyatli vazifalarni bajarish lozimligi yana bir ko'rsatib berildi.

Ayollarga berilgan imtiyoz va yutuqlar haqida gapiradigan bo'lsak, albatta gap ko'p, lekin biz ayollar to'g'risida fikr yuritar ekanmiz muammolardan ham ko'z yumib o'tolmaymiz. Ba'zi oilalarda ayol zimmasiga yuklangan tashvishlarning haddan ziyod ko'pligi, og'irligi bois, ayollarimiz ayollik nafosatlarini, go'zalliklarini yo'qotmoqdalar, dag'allashib, aytish joiz bo'lsa qo'pollashib bormoqdalar. Ayollar haqida gap ketganda ko'z oldimga «Temir xotin» kinofilmi kelaveradi. O'zbek ayolining kundalik bajaradigan yumushlariga hatto temir ham dosh bera olmaydi. Vaholanki qishlok ayollari uchun bu narsa oddiy odatiy hol bo'lib hisoblanmoqda. Achinarlisi shundaki, ular bu narsaga ko'nikib ham ketishgan, boshqacha bo'lishi mumkin emasdek tuyuladi. Yana ustiga-ustak bu yumushlar ozdek, oilasini boqish maqsadida albatta bozorga ravona bo'lishadi. Og'ir-og'ir qoplarni ko'tarib olgan ayollarga qarab rahming keladi. Axir ular ham yaxshi kiyinib, chiroyli, ozoda bo'lib yurishga, ma'naviy hordiq chiqarishga haqlari bor insonlarku. O'zini yigitman deb hisoblaydigan erkaklar, g'ururi bor beklarimiz hyech qachon o'z begoyimlarini ko'chama-ko'cha sanqib yurishiga, pul topish ilinjida bozorma-bozor izg'ib yurishlariga yul qo'yib qo'ya olmaydi. Ko'plar mening bu fikrlarimga e'tiroz bildirishlari mumkin.

Hozirda respublikamizda tadbirkorlikga keng yul ochib berilgan, hamma xohlaganicha yo'l bilan oilasini tebratish mumkin deb o'ylashlari mumkin. Lekin

tadbirkorlik degani bir narsani u yerdan olib borib, bu yerda qimmat-qahati bilan sotish degani emas-ku! O'zi mahsulot ishlab chiqarib o'z mahsuloti bilan xalqqa, yurtga foydasi tegsa, bu haqiqiy tadbirkordir.

Nima bo'lgan taqdirda ham men ayollarning bozorma-bozor yurishlariga mutloqa qarshiman. Yigitlarga qarata shunday demoqchiman: bir oilangizni boqa olmas ekansiz, nega uylanasiz? Bolalaringizni, rafiqangizni ko'p narsaga muxtoj, zor qilib qo'yar ekansiz, qanday xaqingiz bor oila boshlig'i bo'lishga? Meni yigitlar bu achchiq gaplarim uchun kechirsinlaru lekin shunday bo'lgan taqdirda oila boshlig'i jilovini bering. Albatta, meni bu gaplarim yigitlarni g'ashini keltirishi, nafsiyatiga tegishi mumkin. Lekin ochiq tan olish kerakki bizning g'ug'urli, nomusli, alhqomat bahodirlarimiz chamamda kamayib borayotgandek.

Ayol va jamiyat. Yechimining muximligi jixatidan oldimizda ko'ndalang bo'lib turgan bu muammo o'ta murakkab, unchalik oddiy va jun bo'lmagan masaladir. Bu muammolarni ahamiyati sof statistik xisob kitoblar bo'yicha ayollar O'zbekistonda axolini ko'pchiligini 51 % tashkil etganligi uchun ham muximdir deya olamiz.

«Kamolot» ilmiy axborot va sosiologiya markazi tomonidan «ayol va tadbirkorlik» loyixasiga doir ijtimoiy so'rovlar olib borildi. 125 ayol qatnashgan bu tadbir Toshkent shaxrida, Qashqadaryoda o'tkazildi. So'rovga jalb etilganlarning 65 nafari o'zbek ayollari, 35 nafari tojik va 56 nafari boshqa millatlarga mansub ayollardir. Yosh jixatdan savol javobga jalb qilingan ayollar quyidagicha taqsimlanadilar: 20 gacha- 1,6 % , 20-30 yoshdagilar - 18,4 % , 31-40 yoshdagilar 32,8 % 41-50 yoshdagilar 32,8 % , 50 yoshdan yuqori ayollar 14,4 % olib borilgan so'rov anketalari natijasi tadbirkor ayollarning ma'lumoti bir muncha yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ya'ni savol javobga jalb qilingan ayollarning 55,2 % oliy ma'lumotga, 17,6 % o'rta texnik, 6,4 % to'liqsiz oliy ma'lumot, 4,8 % o'rta va texnika bilim yurtlari ma'lumotlariga egadir. Shuni alohida qayt etish joizki oliy ma'lumotga ega bo'lgan ayollarning ko'pchiligi o'zbeklar tashkil qiladi¹.

¹ "Oila va jamiyat" jurnali. Toshkent 2005 yil. №2 son.

Sotsiologik so'rovlar natijasiga ko'ra, 44% ayollar turar joylaridan qat'iy nazar 3 yil va undan ko'p muddat davomida tijorat bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Bundan tashqari, ayollarning yoshi va ularning tijorat sohasida ishlash muddati o'rtasida ham ma'lum aloqa borligi seziladi. Binobarin 50 yoshdan oshgan ayollar tadbirkorlik faoliyati bilan 3 yildan ortiq band bo'lib kelmoqdalar. Shunday xol 30-39 va 40-49 yoshdagi ayollar orasida ham uchraydi, bu yoshdagi ayollar savdo tijorat bilan ikki uch yilmobaynida shug'ullanib kelmoqdalar. 20-29 yoshlilar orasida ham bu ko'rsatkich bir muncha yuqori.

Sotsiologik so'rov natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, tijorat bilan shug'ullanadigan ayollar 12,8 % o'qituvchilik, 12,0 % davlat korxonalarida turli lovozimlarida, 5,6 % shifokorlik va 5,6 % bichuvchilik kasblari bilan band bo'lgan. Uy bekasi bo'lgan ayollar ichida tijorat bilan shug'ullanayotganlari ancha yuqori ko'rsatkich 8,8 % ni tashkil etadi. Shu vaqtgacha biror bir ish bilan band bo'lgan tijoratchi ayollar 8,0 % ni tashkil qiladi. Bu sungi ko'rsatkich Qashqadaryoda yuqori bo'lib u 26,5 %, Toshkentda esa 1,1 % iboratdir¹. Bundan tashqari Qashqadaryolik ayollar «tijoratga shug'ullanganlariga qadar» kolxozchi, savdo xizmat talaba va tikuvchi bo'lib kelishgan. Shunday qilib, o'rta va yuqori yoshdagi tijoratchi ayollar professional bilim va ommaviy tajribaga ega bo'lganligi xaqida so'z yuritish mumkin. Biroq 20-29 yoshdagi ayollar orasida tijorat bilan shug'ullanganlar avval xech qanday ish bilan band bo'lmay yoki uy bekasi bo'lib tijoratga shunchaki xavaskor sifatida kirib kelganlar. Ayollarning 10,4 % ga aynan shu ishni tanlashlariga mamlakatda o'zgarishlar sabab bo'lgan bo'lsa, 8,8 % avvalgi ish joylarini yuqotganliklari turtki bo'lgan. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullantirishga yunaltiruvchi sabablarni ko'rib chiqayotib ular orasida ahamiyatga molik bo'lgan ayollar yoshi kabi amalni aloxida ko'rsatib o'tish joiz. 20 yoshgacha bo'lgan ayollar ikkita sababni ko'rsatadi. Birinchi shu faoliyat bo'lgan qiziqish. Ikkinchi tadbirkor bo'lish istagi. Aytgalarimizdan kelib chiqadigan xulosa shuki: tijorat sohasiga kirayotgan ayollar asosan sobiq

o'qituvchilar shifokorlar, davlat korxonalari ishchilari va uy bekalaridir. Ularning ko'pchiligi tashabbus ko'rsatib tijorat ishini boshlab yuborganlar. Yashash jarayonlaridan millati va yoshlaridan qattiq nazar so'ralgan, ayollarning 62,4 % uz xoxishlariga ko'ra tijoratchi bo'lganliklarini aytishadi. Ba'zi ayollarning tijoratchi bo'lishiga xuddi kutilganidek, ota-onalari, aka yoki ukalari sababchi bo'lgan.

Anketaning: «ish faoliyatingizni yurgizib olishga kimdir» yordam berganmi? «-degan savollarga ayollar 59,2% » xa, «va 40,8 % esa» yuq deb berishdi. Surov natijalari tadbirkorlik ayollarga o'z ishlarini tiklab olishda eri yordam berganliklari ko'rsatdi. Bunday ayollar 44,6 % tashkil etadi.

Har qanday biznesda ham ishni ko'zini biladigan sherik topish undagi muayyan shaxsiy fazilatlar o'zi katta ahamiyatga egadir. So'rov natijalari so'ralganlarning yarmi sherik sifatida ham kerak, ham ayol sheriklarini tanlashganlikni ko'rsatadi. Ammo ayollarning 32,8 % sherik sifatida ishchan, diqqat e'tiborli va mas'uliyatli erkaklarni afzal ko'rishadi. Bundan tashqari respondentlarning 12,2% erkak eng og'ir ishlarni bajaradigan degan fikrda, 9,8 % so'ralganlari esa erkaklar o'zlari vaqtlarini va oilaviy burchlarini rejalashtirishda ancha erkin deb xisoblaydilar¹.

O'z faoliyatlari davomida ayollarga duch keladigan asosiy muammolardan biri bu xokimiyatlar va boshqa turli davlat idora byurokratizimidir, buni suralganlarning 46,4 % e'tirof etdi. Shuningdek xar 4 chi tadbirkor ayol soliq nazorati idoralarining asossiz ravishda tez-tez tekshirib ko'rishdan naroziligini bildirdi. Sanab o'tilgan muammolar qatorida bo'ysinuvchi oddiy xodimlarning imtizomsizligi va uquvsizligi ham uchrab turadi. Bu muammoga so'ralganlarning 42,4% duch kelgan bo'lsa, respondentlarning 34,4 % ish bilarmon shifokorlar bilan o'zaro munosabatlarda muammolarga duch keldi. 27,2 % ayollar bank xisob-kitoblarini o'tkazishda va turli xil transport xizmatlaridan foydalanishda uchraydigan qiyinchiliklarni ham ko'rsatib o'tishadi.

¹ «Oila va jamiyat» jurnali. Toshkent 2005 yil. №2 son.

«Biznes bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish uchun O'zbekistonlik ayollarda qaysi xislatlar mavjud bo'lishligi kerak» degan savolga olingan javoblarda: ishchilik, to'g'rilik, xalollik, insofilik, o'z kuchiga ishonch iroda va sabr qanoat kabi xislatlar ko'rsatilgan. 58,4 % tadbirkor ayollar uchun mamlakatimizning ijtimoiy siyosiy xayotida qatnashish xuquqini amalda joriy qilish imkoniyati muxim ekan. 20 yoshgacha bo'lgan ayollar esa bundan mustasnodir. Ayollarning ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy xayotiga bo'lgan qiziqishlar ular faoliyatlarida ommaviy axborot vositalarining muxim o'rin tutishida ham ko'rinib turibdi. So'rov natijalari ko'pchilik ayollarning televideniya axborot manbai sifatida muntazam ravishda foydalanishlari ko'rsatildi.

Ko'pchilik ayollar o'zlarini dinga e'tiqot qiluvchi deb hisoblashar ekan. Ayollarning 55,2 % islom diniga, 36 % nasroniylik diniga, 3,2 buddizimga e'tiqod qilishar ekan, faqat 5,6 % ayollar bu savolga javob berishga qiynalishdi. So'ralgan ayollarning 38,4% kundalik nomozlarni ado etishlari aniqlandi. Ayollarning ko'pchiligi machit, cherkovlarga bormasligi, ro'za tutmasligi, muqaddas qadam joylarni ziyorat qilmasligi xajga bormaganligi aniqlandi. Lekin tadbirkor ayollar qurbonliklar suyib xudoyilar o'tkazib turishar ekan.

Biz jamiyatimizda o'z o'rnini topmagan, o'z ayollik burchi, o'z vazifalarini batamon unutilib qo'ygan, razolat yo'lining tutgan va xatto og'ir jinoyatlar sodir etgan, ayrim ayollar xaqida ham, garchi istamasakda to'xtalib o'tmoqchimiz.

Aksariyat xollarda Prezidentimiz avf etish to'g'risidagi farmonlariga ko'ra ko'plab jinoyatlar sodir etgan ayollar belgilangan jazolardan ozod etildilar, ammo ming afsuski, bunday ayollarning ko'pchiligi o'zlari uchun to'g'ri xulosalar chiqarib olmasdan yana takror jinoyat sodir qilish yullariga o'tmoqdalar.

Eng achinarlisi, xozirda ko'pgina jinoiy guruhlar ayollarning xizmatidan, ko'pchilik hollarda ularning amaldagi qonunlarimizni yaxshi tushinmasliklardan foydalanib, xotin-qizlarning og'ir jinoyatlarga jalb qilmoqdalar. Xech kimga sir emas oxirgi vaqtlarda respublikamiz xududida tranzid yo'llari orqali narkotik moddalar tashish va yetkazishda bunday jinoiy guruhlar asosan ayollar xizmatidan foydalanmoqda.

Ayollarning jinoyat sodir etishlari avvalgi yillardagiga qaraganda kamaymagan. Bu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi. Respublikamizda jinoyatchilikni yo'q bo'lishiga doir o'ziga xos siyosat olib borilayaptiku! Nega yana ayollar o'rtasida jinoyatchilik oshib borayapti? Bunga sabab nima? Bu borada o'tkazilgan so'rovnomadan shu narsa ma'lum bo'ldi. Bu savolga 51,8 % kishi do'stlari deb, 9,5 % kishi mehnat jamoasi sababchisi deb javob berishgan. 12,8 % kishilarni esa aytolmayman degan javobni aytgan.

Ko'rinib turibdiki qishloq ahli va mahala fuqoralari yig'inlari hamda xotin-qizlar qo'mitalari, xotin-qizlar bilan ishlashni tubdan jonlashtirishlari kerak. Chunki bu o'rinda ayollarni jinoyat sodir etishlarida o'zlarini xuquqini yaxshi bilmaslik ham sabab bo'layaptimikan, degan savol tug'iladi. Shu xaqida o'tkazilgan «Siz o'zingiz shaxsiy» xuquq va majburiyatlaringizni bilasizmi? Degan so'rovnomada savollar ko'rsatkichi quyidagicha bo'ldi: 81,9% kishi «xa», 9,2 % «yo'q», 8,9 % aytolmayman deb javob berishgan. Bu albatta qoniqarli xol bo'lib shaxar ayollar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotdir. Qishloq ayollarining esa atiga 36,5 % o'z xuquqlarini yaxshi bilishar ekan.

Yana shuni aytish mumkinki ayollar jinoyatchiligini oldini olishda. ularning o'zlarini jinoyatchilikga qanday qarashlarini o'rganish ham lozimdir. Bu borada o'tkazilgan so'rovnoma quyidagicha natija berdi: «oilaning buzilish xollari ayollar o'rtasida jinoyatchilikning ko'payishiga sabab bo'layaptimi?» degan savolga 14,2 % xa, 64,2 % yuk, 21 % esa bilmayman, deb javob bergan¹.

«Ayollarning jinoyat qilishi sizningcha qanday xollarga olib kelishi mumkin?» degan savolga ayrim kishilar bu ayollik shaniga dog' tushiradi deyishsa, ba'zilar: «oilaning buzilishiga olib keladi» deb, qisman odamlar esa «farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi» deb javob berishgan.

¹ «Oila va jamiyat» jurnali. Toshkent 2005 yil. №2 son.

Ayol kishining jinoyatga qo'l urishi o'zbek xalqining tafakkuriga, madaniyati va ma'naviy qarashlariga yot bo'lgan xolat bo'lgani uchun bu xodisalar jamiyatni o'ta tashvishga solmoqda¹.

Xullas, oila a'zosining jinoiy-javobgarlikga tortilishi va ozodlikdan maxrum qilinishi, anashunday oilalarda farzandlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatib ma'naviy ruxiy, nosog'lom yoshlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Taxlil va o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, voyaga yetmaganlar va ayollar o'rtasida jinoyatchilikning o'sishiga sabab bo'layotgan obyektiv va subyektiv xolatlarni o'rganib, sog'lom avlod tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun quyidagi masalalarga jiddiy e'tibor bermoq lozim bo'ladi.

Birinchidan, oila va ta'lim maskanlarida tarbiyaviy nazoratni kuchaytirishi, o'smirlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishi lozim. Buning uchun maxalla fuqoralar yig'ini, oila va maktab tizimining aloqasini mustaxkamlash kerak.

Ikkinchidan, xuquqni muxofaza qiluvchi tashkilotlar qonun targ'iboti, tushintirish ishlarini yanada kengaytishlari va ayollar bilan ishlash faoliyatini kuchaytirishlari, yoshlarning eng ishonchli hamkorligiga aylanishiga erishishlari lozim bo'ladi.

Uchinchidan, xokimliklar xotin-qizlar qo'mitalari bilan birgalikda milliy xunarmandchilik orqali yangi ish o'rinlari yaratib, ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yishlari kerak.

Turtinchidan esa qishloq sharoitida istiqomat qiluvchi oilalarda xuquqiy savodsizlikni tugatish maqsadida, ularni qiziqtiruvchi va muammolarga sabab bo'luvchi xuquqiy mavzularda dastur va tavsiyalarning maxsus uslublarini yaratishlari, qonunchilikda yangiliklar yoshlar va ayollar mexnatini ximoya qilish sohasidagi qayd etilgan me'yoriy xujjatlarni o'z vaqtida axoliga ma'lum qilishga e'tibor berishlari kerak.

Giyoxvandlikka qarshi kurash hozir dolzarb muammolardan biri ekanligi, barchaga ma'lum.

¹ М.Восикова «Хар бир аёл учун», Адолат газетаси. Тошкент, 2012 йил.

Bu ishda esa ayollarning ishtiroki hammani xayratga solmoqda. Ayollarning giyoxvandlikga aralashuvini chinakam fojia desak bo'ladi. Nafs iskanjasida o'zini ojiz tutganlar yoki bo'lmasa turmush so'qmoqlarida o'tkinchi qiyinchiliklarga bardosh bera olmaganliklarigagina shu ishga qo'l uradilar. Naxotki nafs jilovini maxkamroq tutish turmushda uchrab turadigan qiyinchiliklarni o'z mexnati, bardoshi bilan yengish bizning ayrim o'zbek ayollarining qo'lidan kelmaydigan bo'lsa? O'zbek ayoli necha-necha mashaqqatli damlarda o'zini borligini farzandiga bag'ishlab, jaxonga yetuk insonlarni tarbiyalab berib butun insoniyatni lol qoldirgan. Agar tarixga nazar tashlagudek bo'lsak xech bir millat ayollari erishmagan muvoffaqiyatlariga, zafarlariga bizning o'zbek ayollari erishgan bo'ladi. Qanchadan qancha o'zbek millatiga mansub ulomalar va fozila ayollar dunyodan o'tmagan deysiz.

Shunday ekan, o'zini buyuk o'zbek ayoliman deb faxrlanib yurgan har bir ayol o'zining o'zbekligiga sodiq qolsin.

Respublikamizda “Sog’lom ona – sog’lom bola” davlat dasturini hayotga tadbiq etishda ayollarning roli

Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, jahon hamjamiyatidagi mamlakatimizning obro’-e’tibori, avvalambor sog’lom avlod, bugungi kun farzandlarining o’nib-o’sib, ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Mamlakatimizda sog’lom va uyg’un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlarni yaratish, XXI asr-intelektual qadriyatlar ustuvorlik qilinadigan asr ekanligini e’tiborga olgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish borasidagi keng ko’lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida «Sog’lom ona – sog’lom bola» Davlat dasturi ishlab chiqildi. O’zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, **“oila sog’lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir”¹**.

Bu vazifalarga birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari yosh avlodning bilim olishiga yuqori malakali kadrlar bo’lib, o’z yurti va xalqiga sidqidildan xizmat qilishga, ozod yurt saodati uchun halol mehnat qilishga o’rgatishni nazarda tutadi. Zero Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek **“Farzandlarimiz bizdan ko’ra, kuchli bilimli, dono, va albatta baxtli bo’lishlari kerak”²** degan so’zlari fikrlarimizning asosi bo’lib xizmat qiladi.

Ɛrtangi kun bugundan boshlanadi. Agar biz bugun tarbiya masalasiga e’tibor qaratmasak, kelajagimizga ishonch yo’qoladi. Yosh avlodni kamol toptirish, tarbiyalash eng avvalo ijtimoiy tuzilmalar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tuzilmani oila, maktab, mahalla kabi ijtimoiy institutlar tashkil etadi. Barkamol avlod orzusi – eng buyuk orzu. O’zbekistonning kelajagi buyuk ekanligini qat’iy ishonch bilan yashayotgan xalqimizning orzusi bu. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, nimaiki o’z oldimizga maqsad qilib qo’ymaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha olijanob harakatlarimizning negizida, barcha ezgu niyatlarimizning zamirida farzandlarimizni ham jismonan, ham ma’naviy jihatdan

1 Ислон Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008 йил – 58-бет.

2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi”. ”Toshkent” Sharq. 1997 yil. 17-bet.

sogʻlom qilib oʻstirish, ularning baxtu-saodati, farovon kelajagini koʻrishi, dunyoda hech kimdan kam boʻlmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi mujassamdir.

«Xalqimizda qush inida koʻrganini qiladi» degan naql bor. Ajdodlarimizning minglab yillik hayot tajribalari samarasi sifatida yashab kelayotgan ushbu ibora barkamol avlod avvalo oilada ulgʻayishiga ishoradir.

Pedagoglarning xulosasiga koʻra, insonning qanday shaxs boʻlib etishishi 15 foiz hollarda irsiyatga, 40 foiz hollarda muhitga, 45 foiz hollarda tarbiyaning taʼsiriga bogʻliq boʻlar ekan. Sotsiologdan esa bu borada asosan uch omil irsiyat, psixofiziologik holat hamda shaxs bilim darajasi muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidlaydi.

Odamzot, garchand jismoniy jihatdan sogʻlom boʻlsada, uning etuk shaxs sifatida voyaga etishida muayyan ijtimoiy muhit, insonlar bilan muloqotda yashash juda muhim ekani allaqachon isbotlarga. Demak, shaxs jamiyat bagʻrida shakllanadi.

Ɖtnologiya va sotsiologiya fanlarida bolalarni har xil tarbiya usullari orqali jamiyatga qoʻshish jarayoni «sotsializatsiya» deyiladi. YAʼni, bola jamiyatga asta-skin moslashib ijtimoiylashib boradi. Bu jarayon jamiyat va yon atrofdagi kishilarning muntazam taʼsiri orqali amalga oshadi. Ayniqsa, bola hatti-harakatlarining oila, maktab, mahalla, doʻstlar, jamoa tomonidan nazorat qilinishi uning hulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasidir.

Farzand dunyoga kelgach, shubhasizki, unga ilk tarbiya beruvchi muhit oiladir. Shu nuqtai nazardan, Prezident I.Karimovning quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: «Barkamol farzand sogʻlom oilaviy muhitda voyaga etadi. Bunga erishish uchun, birinchi navbatda, targʻibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishimiz, avvalambor ota-onalarning ongini, ularning farzandlariga boʻlgan munosabatini oʻzgartirishimiz kerak»¹.

Inson hayotining ilk yillarida olgan tarbiyasi uning shaxs boʻlib shakllanishida poydevor boʻlib xizmat qiladi. Ruhshunoslarning fikricha, inson ongining 80% besh yoshga qadar shakllanib boʻlar ekan. Pedagoglar ham besh

¹ I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi". "Toshkent" Sharq. 1997 yil. 27-bet.

yoshga qadar bo'lgan tarbiya butun tarbiyaviy jarayonning 90% ni tashkil qiladi, deya qayd etadi. Har ikki soha mutaxassislarining yakdil e'tirofiga ko'ra, besh yoshdan so'ng qayta tarbiyalash jarayoni boshlanar ekan. Ulug' rus yozuvchisi Lev Tolstoy ham bolalikning dastlabki davri uning ongida hal qiluvchi bosqich ekanini ta'kidlab, «besh yoshli boladan mengacha bo'lgan masofa atiga bir qadam, chaqoloqdan besh yoshli bolagacha bo'lgan masofa esa aql bovar qilmas darajada uzoqdir» deb yozgan edi. Ilmiy xulosalarga ko'ra, 5-6 yashar bolalar aql va farosat va idrok bobida kattalardan qolishmaydi, ularda kattalardagi tajriba va bilim etishmaydi, xolos.

Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo'lishi – avlodlar almashinuvi asosan oilada sodir bo'ladi. Farzand tug'ilib, kamolga etib, shaxs sifatida shakllangunga qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim-tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug'iga, qariyalarga, atrof-muhitga va tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. SHu bilan birga oila urf-odatlarini, qadriyatlarini avloddan-avlodga etkazuvchi ijtimoiy tuzilma hisoblanadi.

Oila – jamiyatning birlamchi o'zagi, ijtimoiy-madaniy birlik. Jamiyat ana shu kichik, ammo favqulodda muhim o'zaklardan tashkil topadi. Lekin, u shunchaki kichik jamoa emas, balki insonlar ittifoqidir. Har bir oila shu ma'noda bir-biriga o'xshamaydigan o'ziga xos bir olamdir.

Oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. CHunki oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom, barkamol yosh avlodni, etuk shaxsni tarbiyalash manbaidir.

Ayonki, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, fuqarolarimizning bilimdonligi, aql-zakovati, ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksakligiga bog'liqdir. Barcha go'zal insoniy fazilatlar oilada, oila muhitida shakllanadi. SHuning uchun

ham, oilaning muhim vazifalaridan biri farzandlarni har tomonlama barkamol inson sifatida tarbiyalash bo'lib hisoblangan.

Zero, oilaning vazifasi qaysidir ma'noda ijtimoiy ehtiyojlar xarakteri bilan o'xshash. Shu bois bo'lsa kerakki, oila shaxsining ijtimoiylashuvi, uning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy nufuziy jarayonlar bilan aloqasini ham bajaradi.

Oilaning tarbiyaviy funktsiyaga ega ekanligi hech kimga sir emas. Oilada yoshlarda ijtimoiy milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy fazilatlarini, hayotiy mezon va normalarni, odob va estetik didni shakllantiruvchi muhim maskandir.

Muayyan holatlarda, oilalarda nosog'lom psixologik muhitning mavjudligi, oilaviy munosabatlardagi noxushliklar, oiladagi ajralishlar, ota-onalardan birining yo'qligi, oilaviy tarbiyada yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar hamda oilaning tarbiyaviy ta'sirga ega emasligi bolalari va o'smirlar xulqida ba'zi bir nuqson va kamchiliklarning yuzaga kelishiga imkon bermoqda.

Oilada etarlicha tarbiya ko'rmagan bolalar turmush qiyinchiliklarida qoqiladi. Turli xil nizoli vaziyatlarga duch keladi. Tarbiasizlik o'smirni yaxshi o'rtoqlaridan, davralardan ayiradi. Oqibatda o'smir uchun birdan bir yo'l afsus nosog'lom davraga qo'shilib ketish bo'lib qoladi. Qarabsizki, o'smirda deviant xulq-atvor shaklanadi va u jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga, ijtimoiy munosabatlarda ham sog'lom munosabatda bo'lolmaydi.

Bugungi kunda globalizatsiya natijasida ravnaq topayotgan «oilaviy madaniyat» niqobi ostidagi turli xil xurujlardan biz faqatgina milliy muhitda kamol topgan «milliy shaxs» timsolida saqlanishimiz mumkin.

Amerikalik faylasuf J.G.Mid (1863-1931) har bir kishining ma'lum milliy muhitdagi xulq-atvorini tushunish va uning bolalikda olgan milliy tarbiyasi ta'siri nihoyatda katta ahamiyatga ekanligini qayd qiladi. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o'tib keluvchi an'analar, marosim, udum, ishlab chiqarish va hayotiy malakalar, afsonalar, xulq-atvor tarzi, bolalar, o'smirlar, qariyalarga munosabatlarning o'ziga xosligi katta rol o'ynashini M.Mid alohida qayd etadi.

Bir millatga mansub kishilar uchun umumiy bo'lgan fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan namunaviy milliy shaxs siyosati mavjudligini birinchi bo'lib A.Kardiner qayd qiladi. U «Milliy shaxs»ning shakllanishida eng avvalo, oilaning milliy-tarbiyaviy ta'sirini, undan keyin ijtimoiy tarbiya omillarining etakchi rolini alohida qayd qiladi.

Yosh avlod tarbiyasida yana bir muhim ijtimoiy tuzilma bu – ta'lim-tarbiya tizimi ya'ni maktab, ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Tarbiya inson faoliyatining istiqbol maqsadini belgilaydi. SHu sababli ham shaxs kamolotini belgilashda etakchi rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonidagi tarbiya ta'limni insonparvarlashtirishni ta'minlaydi. Uzluksiz ta'lim tizimida barkamol shaxsni ma'lum bir tizim asosida tarbiyalash har bir insonning jamiyatda o'z o'rnini topish jarayonini tezlashtiradi.

Maktabgacha ta'lim tizimi ham bola tarbiyasida muhim sanaladi. Bu sohada xususan Angliyada tarbiyachilik juda mas'uliyatli va nufuzli kasb hisoblanadi. Bir necha bosqichdan iborat tanlovdan o'tganlargina tarbiyachi sifatida ishga olinar ekan. Yaponlarda ham tarbiya jarayonida eng katta e'tibor bog'cha yoshidagi bolalarga qaratiladi. Bizda esa eski tuzum davridanoq bilimdon va malakali tarbiyachilar etishmasligi sababli o'ta mas'uliyatli bu ish bilan ko'pincha boquvchi enagalar shug'ullanib keladi. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy maktabni «butun xalq tarbiyasining bir bo'lagi» deb bejiz atamagan. Buyuk mutafakkir Jorj Danton ham: «Xalq uchun nondan so'ng muhimi maktabdir» deya ta'kidlaydilar.

Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o'qituvchi-tarbiyachilar, sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ulra tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil etadilar.

Prezidentimiz tashabbusi bilan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun Kadrlar Tayyorlash Milliy Dasturi, maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi kabi o'ta muhim hujjatlarning qabul qilinishi bu soha rivoji uchun ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasi mamlakatimizda butunlay yangicha mazmun-mohiyat kasb etib bormoqda. SHu bois keyingi vaqtda

o'quvchilarda puxta bilim egallash, oliy ma'lumotli bo'lishga intilish ancha kuchaydi. Bu hol ota-onalar o'z farzandini namunali maktab va litseylarda o'qitish, xorij tillarini o'rganish, ular uchun qo'shimcha mashg'ulotlar belgilash va o'qituvchi yollash kabi zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanilayotganida ham namoyon bo'lmoqda. Bu esa tarmoqda amalga oshirilayotgan tub islohotlar tufayli nafaqat ta'lim-tarbiya jarayoni, balki odamlarning ongi, tafakkuri ham tubdan o'zgarayotganidan dalolat beradi.

Ta'limning yangilanishi uning ijtimoiylashuvini talab etadi. Ta'limning ijtimoiylashuvi-ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyatdan va ijobiy fikrlashni shakllantirishdan iboratdir.

Pedagoglarning fikricha, 5-6 yoshdan 15-16 yoshga qadar ham bolani qayta tarbiyalash mumkin. Lekin bu ancha qiyin kechadigan jarayon hisoblanadi. Chunki ota-onalar, o'qituvchi va murabbiylar oldida boladagi yomon qiliqlar stereotip shakliga kirib bo'lgandan so'ng ularni o'zgartirishdek murakkab vazifa turadi. Demak, bolada salbiy xususiyatlar turg'un xarakter kasb etmasdan, uning shaxsini to'liq qamrab olmasdan turib, zarur choralarni ko'rish talab etiladi. Agar o'z davrida bolalarni ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan sig'lom qilib tarbiyalay olsak, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichida butun ko'p g'ayratini ularni qayta tarbiyalashga emas, mutaxassisligi bo'yicha chuqur bo'yin egallashiga sarflagan bo'lardik.

Ma'lumki, shaxsni barkamol etib tarbiyalashda oila, ta'lim muassasasi bilan birga mahalla hamkorligi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda oila, maktab, mahalla uchligi birlashgandagina haqiqiy tarbiya maqsadi amalga oshadi. Tarbiya ana shu uchlikni bog'lab turuvchi ko'prik hisoblanadi.

Mahalla tarbiya beshigi hisoblanadi. Har bir shaxs mahallada shakllanadi. Shunday ekan, yoshlarga e'tibor-kelajakka e'tibordir. YOshlarimizni ko'z qorachig'iday asrash, ularni insonparvarlik, mehr saxovat ruhida tarbiyalash har birimizning burchimizdir. Yoshlarning ma'naviy-ruhiy jihatdan qayta qad rostlashining jo'shqin o'chog'i bo'lgan eng olijanob, ma'nodagi mahalla, qo'ni-

qo'shnichilik, o'zaro yordamlashuvning ahamiyatini ko'proq qadrlash maqsadga muvofiqdir.

Donishmandlarning «Mahallang-ota-onang», «Bir bolaga etti mahalla ota-ona» kabi naqlari bejiz emas albatta.

Bugun barchamiz bir haqiqatni teran anglab olishimiz lozim-yoshlarimizning tom ma'noda barkamol bo'lib ulg'ayishi, o'zidagi kuch-salohiyatini to'liq namoyon etishi ularga beradigan ta'lim, yaratadigan shart-sharoitimiz va jamiyatimizdagi sog'lom muhitga har jihatdan bog'liqdir.

XULOSA

1991 yil erishgan mustakilligimiz xayotimizni o'zgartirib yubordi, jumladan xotin qizlar masalasida ham talaygina o'zgarishlar ro'y berdi.

Davlat har qancha qudratli bo'lmasin uning ma'naviy asoslari pishiq bo'lmasa unda ayol ishtirok etmasa, betakror va qadimiy qadriyatlarni tiklash, xalqimizning ma'naviy, ruhiy ehtiyojlarini qondirish, mafkurasi mustahkam barkamol jamiyat qurish, barkamol avlodni kamol toptirish mumkin emas. Mamlakat taraqqiyoti ayolning jamiyatdagi taraqqiyot o'rniga qarab belgilanadi.

Ayolning o'zi, uning borligi ma'naviyatidir, ayol olam uchun yaralgan. Millatning boshlanishi ayoldan, millatning ma'naviyatli ma'rifatli bo'lishi, barkamol topishi ham ayoldandir. Bugun esa u kelajak orzulari bilan XXI asrga qadam qo'ydi.

Universitetimiz xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati haqida ham fiklarimizni bildirib o'tkazmoqchiman.

Xotin-qizlar qo'mitasi qator yillardan buyon universitet hayoti faol ishtirok etib kelmoqda va o'ziga quyidagi so'zlarni shior qilib olgan: «Ayollarsiz tiriklikni, bashariyat sirlari insonni tasavvur qilib bo'lmaydi, zero ayollarni birinchi galdagi vazifasi vatan uchun, millat uchun sog'lom va barkamol naslni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir».

Universitet xotin-qizlar ko'mitasi yillar davomida anchagina namunali ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Qo'mitaning odatiy faoliyatiga aylanib qolgan «Qushloqqa gapiriladigan gaplar» ruknida ginikolog vrach maslahati, «Sog'lom oila, soglom avlod manbai» ruknida talaba va xotin-qizlarning hayot sharoitiga e'tibor berish va ularga bu borada namuna ko'rsatish, ularni tug'ri yo'lga boshlash, qizlarni hayot yo'liga tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Universitetda hozirgi kunda 336 ta professor – o'qituvchilar o'quv yordami ishlari buyicha 507 va boshqalar, jami 1196 ta xotin-qizlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Universitet xayotida faol ishtirok etayotgan xotin-qizlarni takdirlash ularni rag'barlantirib turish, milliy qadriyatlarimizni tiklash maqsadida izlanishlarni olib bormoqda.

Bugungi kunda qishloq ayollarining iqtisodiy axvoli quyidagi ko'rsatmalar bilan xarakterlanadi:

- Qishloq ayollarining bandlik ko'rsatkichi:

-Qishloq ayollari o'rtasidagi ishsizlik darajasi:

-Kundalik darajasi (rasmiy statistik ma'lumotlar qishloq ayollarning alohida tahlil qilganda shuni ko'rsatadiki, ayollarning iqtisodiy ahvoli qishloq aholisini umumiy xarajat miqdori bilan ulchanar ekan).

-tirikchilik minimumi o'lchami:

-Ayollar extiyojlarini qondirish darajasi.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak butun markaziy Osiyoda 1993 yilga qaraganda 1997 yil qishloq xo'jaligida band aholisini soni ancha o'sgan. Shirkat xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarini soni ham o'sgan. Ijora xo'jaliklarida ishlovchi ishchilar 2002-2003 yillarga qaraganda 2014 yilda ko'paygan.

Ijora xo'jaliklari dehqon fermer xo'jaliklari ishlayotgan ayollar yetishtirayotgan mahsulotlar darajalaridan ko'ngillari to'q. Ular nafaqat qishloq xo'jaligi bilan band balki oliy ma'lumotli va to'liq bo'lmagan oliy malumotli, O'rta maxsus bilimga o'rta maktab bilim darajalariga ega bo'lib borayotgan shaxslardir. Ularning ichida qishloq uchun zarur bo'lgan mutaxassislar – o'qituvchilar, vrachlar, iqtisodchilar, bug'alterlar, moliya va savdo xodimlari, agronomlar va boshqa texnik xodimlarning mavjudligi bizni quvontiradi. Butun markaziy Osiyo ayollari orasida vrach va o'qituvchilik kasbini egalari soni eng ko'upchilikni tashkil etar ekan. "Qishloq ayollarini extiyojlari ayollarning an'anaviy extiyojlaridan unchalik farq qilmaydi. Bor farqlar ham quyidagilardir:

- Extiyojlardan qoniqqanlik darajasi:

- Xizmat sifatining moslik darajasi:

Vaqt sanogi, zarur extiyojlarni realizasiya (amalga oshirish) kilish:

Qishloq ayollarini norasmiy iqtisod sektorida bandliklari.

Respublikamizning qishloq ayollarida oila vazifalari, yumishlaridan ortolmay aksariat hollarda uy bekalari bo'lib qolmoqdalar. Bir tomondan yaxshi, bola tarbiyasi bilan shug'ullanmoqda - saramjon sarishtalik bo'lishadi. Lekin ikkinchi tomondan biror bir kasblari qo'lini tutmasliklar ma'lum bir jamoada mehnat qilmasalar mening nazarimda jamiyatdan ular uzilib qoladilar. Ko'pincha uy ishlari, yer uchastkalarida ishlash mehnat faoliyati bilan tenglashtiradilar. Lekin mehnatning bu turi mehnat daftarchasida qayd qilinmaydi, ish staji bermaydi, bandlik statusiga ham ega bo'lmaydi.

Uy xo'jaligi (uy supursidur, ovkat tayyorlash, kir yuvish, dazmol qilish va xk.) mehnat qiluvchi 14 yosh va undan kattalar 1999 yilgi tadqiqot natijalariga ko'ra 43 % tashkil qiladi. Uy xo'jaligida ishlovchi ayollar bir kunda o'rtacha 5 soat ishda bo'lishadi.

Bo'sh vaqtlarida ayollar bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Ko'plab ayollar mamlakatimiz mehnat potensialining asosiy qismining tashkil qiladi. Ularning mehnatdagi samarador ish faoliyatlari hal xo'jaligida muhim bo'lib hisoblanadi. Ko'p ayollar uchun ish bu nafaqat kasbi faoliyat balki oilaviy budjetga ham yordamdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri ayollarni turlicha mehnat shakllarini bajarishga olib keldi. Ular o'z kasbi ishlaridan tashkarida boshqa ishlar bilan ham shug'ullanmoqda masalan: tadbirkorlik bilan, norasmiy iqtisod sektoridagi, firmalarda, uy xo'jalikdagi ishlash va x k.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2012.
2. Karimov I.A. Oila farovonligi - millat farovonligi."O'zbekiston". T.6. 1998.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. 1999.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. - T.: "O'zbekiston". T.8. 2000.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent 2008.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Xalq so'zi. 2010 yil 13 noyabr.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir // Toshkent: O'zbekiston, 2010.
8. Karimov I.A. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2010 y 25 iyun' // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmatining veb-sayti – WWW.press-servic.Uz.
9. Karimov I.A.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - T.: O'zbekiston, 2012 y.
10. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent 2012 y.
- 11.Karimov I.A Tarixiy xotira va inson omili buyuk kelajagimizning garovidir Risola T. 2012.
12. Karimov I.A., O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan anjumandagi ma`ruzasi. Xalq so'zi, 2013 yil, 7-dekabr. 3-bet.
13. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) // www.lex.uz

Darslik va o'quv qo'llanmalar

- 14.Olimot ul – Banaoit «Muoshariat odobi» Toshkent, 1991 yil.
15. Uzoqov, E.G'oziyev, A.Tojiyev «Oila etikasi va psixologiyasi» Toshkent, 1992.

- 16.To'raeva O. «Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi». T., «O'qituvchi», 1998.
- 17.Sh.Shayxova, K.Nazarov «Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot» Toshkent, 1992 yil.
- 18.Inomova M. «Farzand-nihol, ota-ona-bog'bon» Toshkent, 1993.
- 20.Mahmudov R. Olimot ul-Banoit «Muoshariat odobi» Toshkent, 1991.
- 21.Maxmudov R. «Huquq va madaniyat». T., «O'zbekiston» 1994.
- 22.Yaxyoyeva L. «Ayollarning ijtimoiy - siyosiy faolligi».Risola T. 1995.
- 23.A.To'xtasinov, N.Rahimov «Nikoh, oila, jamiyat» Toshkent, 1995.
- 24.Muminova A. «Xalk ogzaki ijodida ayollar obrazi». Risola. T. 1999
- 25.Xolmatova M. «Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi». T., «O'zbekiston» 2000.
- 26.Avesto: Yasht kitobi.T., Sharq matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi. Bosh tahririyati, 2001.
- 27.Ahmad Yassaviy hikmatlar. Toshkent 2001-y.
- 28.«Istiqlol davrida oila qadriyatlarining transformasiyalashuv jarayonlari». Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Mas'ul muharrirlar: M.Bekmurodov, I.Qirg'izov. Farg'ona 2007.
- 29.Mannopov S. «Oila va oilaviy munosabatlar sosiologiyasi». Ma'ruzalar matni. (Ijtimoiy ish yo'nalishi uchun). Farg'ona 2007.
- 30.Inoyatov M. «Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat» T., «Sharq» 2000.
- 31.Ubaydullayeva R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: Fan, 2006.
- 32.O'zbekiston Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Toshkent 2008.

Gazeta va jurnallar

1. «Agar ayol ishlasa». «Yosh kuch». 2003 yil, №3.
2. «Oila va jamiyat» jurnali. Toshkent 2005. №2 son.
3. «Ayol jamiyat nigohida». «Qadriyat» gazetasi, 2006.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi: 2008. 9-son. 338-b.
5. M.Vosikova «Har bir ayol uchun», Adolat gazetasi. Toshkent, 2012 yil.

